

Monografiya

Monografiyada markaziy osiyo pedagogik fikr taraqqiyotida musiqa ilmi va musiqa sozlarining tutgan o'rnini to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Monografiya san'atshunoslik, musiqashunoslik yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borayotgan talabalar, magistrlar va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

AZAMAT RAJABOV
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Globe
EDIT

Globe
EDIT



Azamat Rajabov

Monografiya

MARKAZIY OSIYO PEDAGOGIK FIKR
TARAQQIYOTIDA MUSIQA ILMI VA MUSIQA
SOZLARINING TUTGAN O'RNI

Rajabov

Azamat Rajabov

Monografiya

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

Azamat Rajabov

Monografiya

**MARKAZIY OSIYO PEDAGOGIK FIKR
TARAQQIYOTIDA MUSIQA ILMI VA MUSIQA
SOZLARINING TUTGAN O'RNI**

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

17 Meldrum Street, Beau Bassin 71504, Mauritius

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-62149-8

Copyright © Azamat Rajabov

Copyright © 2021 International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

FOR AUTHOR USE ONLY

AZAMAT RAJABOV

**MARKAZIY OSIYO PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTIDA
MUSIQA ILMI VA MUSIQA SOZLARINING TUTGAN O‘RNI
(Monografiya)**

FOR AUTHOR USE ONLY

Buxoro-2021

Monografiyada markaziy osiyo pedagogik fikr taraqqiyotida musiqa ilmi va musiqa sozlarining tutgan o'rni to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Monografiya san'atshunoslik, musiqashunoslik yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borayotgan talabalar, magistrlar va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

S.B.Saidiy, NavDPI "musiqa ta'limi" kafedrasi professori s.f.n

B.X.Madrimov, BuxDU "San'atshunoslik" fakulteti dekani

Monografiya BuxDU ilmiy-texnik kengashining navbatdan tashqari 2021 yil 22 yanvardagi 1-son yig'ilish bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....4-11

I – BOB. Markaziy Osiyoda musiqa ilmi va musiqa sozlari haqida ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

1.1. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar
ishlarining tahlili.....11-19

1.2. Sharq mutafakkirlarining cholg'u sozlari rivoji va takomillashuviga
qo'shgan hissalarlari 20-30

1-bob bo'yicha xulosa..... 31-32

II – BOB. Musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilim va tushunchalarni o'rganishning ilmiy-amaliy asoslari

2.1. Markaziy Osiyo musiqa ilmida musiqa sozlarining shakllari va ularning
tovushqatorlari33-67

2.2. Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni
o'quvchi yoshlarning musiqa madaniyatini shakllantirishdagi
o'rni va ahamiyati68-76

2-bob bo'yicha xulosa..... 76-77

III - BOB: Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishning pedagogik shart-sharoitlari

3.1. Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi
bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari78-85

3.2. Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni
o'zlashtirish samaradorligi yuzasidan amaliy tajribalar
mohiyati.....86-95

3-bob bo'yicha xulosa.....95-98

Umumiy xulosa..... 99-100

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....101-103

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish o'quvchilarni ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, jismonan sog'lom, milliy, madaniy qadriyatlarga ongli munosabatda bo'ladigan, shuningdek, fan sirlarini chuqur egallagan har tomonlama bilimli insonlar qilib tarbiyalash jamiyatimizni rivojlantirishga qaratilgan barcha vazifalar ichida ustuvor ahamiyat kasb etib turibdi. Ta'limning barcha bo'g'larida va fanlar yo'nalishlarida bo'lgani kabi o'quvchi-yoshlarni axloqiy, estetik, ma'naviy jihatdan yetuk va milliy g'oyalarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularning badiiy tafakkurini o'stirishda umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" fani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi muhim o'rin egallaydi.

Madaniyat va san'at sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi va dasturda ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish sohasida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Chora-tadbir dasturida bolalar musiqa va san'at maktablari va madaniyat markazlarini musiqa cholg'ulari bilan ta'minlash, aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "ommaviy madaniy tadbirlarni tashkil etish" ta'lim yo'nalishi va ushbu yo'nalish bo'yicha alohida kafedra tashkil etish, adabiy yo'nalishlar bo'yicha "Yilning eng yaxshi asari" respublika tanlovi o'tkazish, Metsenatlar forumini o'tkazish, madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli muammo va vazifalar belgilab qo'yildi.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "musiqa madaniyati" fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'quvchi yoshlarni madaniy, ma'naviy, mafkuraviy shakllangan, milliy o'zligi, tili, diniy e'tiqodi, qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini va milliy musiqa merosimizga sodiq va ularga vorislik qila oladiga komil inson sifatida tarbiyalash kabi keng ko'lamli vazifalar oliy ta'limda ta'lim mazmunini uzluksiz takomillashtirishni talab qiladi. Musiqa o'qituvchilari kelgusida pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi, ya'ni musiqa san'atining bir paytda bir necha sohalaridan yetuk bilim, malakalarga ega bo'lishi lozimligi ularni kasbiy tayyorlash masuliyatini yanada oshiradi.

Shuning uchun ham bo'lajak musiqa oqituvchisi shaxsini kasbiy rivojlantirish va boyitish, nazariy va amaliy ijrochilikka yo'naltirish asosida uni o'z sohasining mohir mutaxassisi qilib yetishtirish hamda "Davlat ta'lim standartlari" talablari darajasida shakllantirish muammolari yotadi. Zero, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarliklariga bog'liq. Bu esa musiqa oqituvchilari tayyorlashga ixtisoslashtirilgan ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni musiqaning nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog'liq bir necha sohalaridan, jumladan kuylash, cholg'u asboblari ijro etish, jamoaviy ijroni tashkil qilish va boshqarish, musiqa tarixi kabi sohalaridan yuqori malaka va tayyorgarlikka ega bo'lishligini taqozo etadi.

Bu o'rinda musiqa darslarining asosiy faoliyati bo'lmish o'zbek xalq cholg'ularida ijro etish faoliyatini tashkil qilish, boshqarish o'qituvchidan cholg'ushunoslik va xorshunoslik asoslari bilan birga "musiqa ilmi" boshqaruvi bo'yicha ham keng ko'lamli bilim va iqtidorga ega bo'lishini talab etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari faoliyatida «Markaziy Osiyo musiqa ilmi» «Cholg'ushunoslik» fani boyicha egallangan bilim va malakalar musiqa darslarida jamoaviy ijroni badiiy yuksak sifat va samaradorlik kasb etishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bo'lajak musiqa o'qituvchilarini Musiqiy ilm faoliyatiga tayyorlash o'ziga xos ilmiy, nazariy, uslubiy, amaliy jarayonni talab

qiladiki, uning pedagogik asoslarini ochib berish ushbu tizimni talab darajasida shakllantirishda o'z samarasini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda va hamdo'stlik respublikalarida musiqa pedagogikasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalishda ko'plab muhim va ahamiyatga molik izlanishlar qilingan. Bunday ishlarning asosiy ko'pchiligida musiqiy asarlar, ularda ilgari surilgan g'oyalarning shaxs kamolotidagi o'rni, musiqiy asarlar, xalq musiqa merosi, qo'shiqlar, folklorlar va mumtoz musiqa yordamida estetik tarbiyalash masalalari tadqiq etilgan.

Bunday ishlar jumlasiga S.K.Annomuratova, R.Qodirov, H.Nurmatov, Q.Mamirov, D.Kamolova, N.Tolliboyev, N.Qudratov, B.Karomatova kabi olimlarni ishlarini misol keltirish mumkin. D.Omonullayev, R.Tursunov, A.Nazarov, D.Jamolova, D.Soipovalarning tadqiqot ishlarida ozbek xalq musiqa san'atining badiiy-estetik ta'lim tarbiya doirasida o'rganilishini samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Bir qator psixologik, pedagogik va uslubiy ishlanmalarda (S.K. Annamuratova, M.Quronov, A.Hasanov, L.G.Koval) ta'lim nazariyasining ma'naviy-axloqiy, estetik jihatlarini yoritilgan.

Xalq ta'limi tizimida o'quvchilarga musiqiy fanlarni o'qitish muammolari N.I.Voloshin, J.A.Sokolyevkaya, A.N.Ovsinyuk, A.F.Nazarov kabilar tomonidan izchil tadqiq etilgan. Markaziy Osiyoda pedagogik fikr hamda musiqa san'atiga oid va musiqiy sozlar to'g'risida ilmiy-tadqiqot va metodik ishlar asosan, rus pedagog-olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Bunga va Mironov, V.Uspenskiy, Romanovskayalar hamda F.Karomatov va yana ko'plab olimlar ishlarini keltirish mumkin. Lekin bu ishlarda bo'lg'usi o'qituvchilarni musiqiy ilm ya'ni ta'lim faoliyatiga tayyorlash asosiy tadqiqot muammosi sifatida o'rganilmagan. Shunga asoslanib biz tadqiqotimiz mavzusini **«Markaziy Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotida musiqa ilmi va musiqa sozlarining tutgan o'rni»** - deb nomladik.

Tadqiqot maqsadi: «Markaziy Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotida musiqa ilmi va musiqa sozlarining tutgan o'rnini» ni bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy ta'lim, musiqa savodxonligi faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini hamda ularni amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

Tadqiqot vazifalari

1. Oliy ta'lim tizimida musiqa fanlari, cholg'u ijrochiligi, musiqa tarixi, xususan Musiqa metodikasi fani o'qitilish holatini o'rganish;
2. Musiqa san'ati, cholg'u sozlari va uning musiqa ta'limiga bog'liq masalalari o'rganilgan manbalarni tahlil qilish, umumlashtirish va zarur xulosalar chiqarish;
3. Soha mutaxassislari, pedagoglar bilan suhbatlar o'tkazish;
4. Musiqiy ta'lim bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uslublarini aniqlash;
5. Oliy ta'lim tizimida musiqa ijodkorligi, musiqa metodikasi fanini o'qitishning o'quvchilarni kasbiy tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni va metodik tizimini ishlab chiqish;
6. Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini cholg'u sozlari va musiqiy pedagogik faoliyatiga tayyorlash yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Umum ta'lim maktablari hamda pedagogika oliy o'quv yurtlari "musiqiy talim" yo'nalishida "Musiqa o'qitish metodikasi" fani va o'rta maktab musiqa madaniyati darslari fanini o'qitishda maktab o'quvchilarini musiqiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: o'rta maktab musiqa madaniyati darslari fanini o'qitish jarayonida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqot metodlari: mavzuga oid ilmiy, uslubiy va pedagogik manbalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalash, savol-javob,

anketa-so'rovlar o'tkazish, tajriba-sinov ishlari olib borish va matematik statistika.

Tadqiqotga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

- O'rta maktab yuqori sinf o'quvchilarini va bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning dolzarb pedagogik muammolari;
- Musiqa madaniyati darslarida fanni o'qitish jarayonida maktab o'quvchilarini musiqa mashg'ulotlariga va musiqiy sozlarda ijro etish faoliyatiga tayyorlash mazmuni;
- O'rta maktab o'quvchilarini musiqa mashg'ulotlariga va musiqiy sozlarda ijro etish faoliyatiga tayyorlash jarayonining ilmiy-amaliy asoslari (shakl, usul va vositalari);
- Maktab o'quvchilarida musiqa mashg'ulotlariga va musiqiy sozlarda ijro etish malakalarini pedagogik faoliyatga tayyorgarligini belgilovchi mezonlar;
- O'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa mashg'ulotlariga va musiqiy sozlarda ijro etishni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar.

Tadqiqot natijasi:

1. O'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa mashg'ulotlariga va musiqiy sozlarda ijro etish hamda musiqiy ta'limda ijrochilik fanini o'qitish amaliyoti, tajribalar o'rganildi, tahlil qilindi va umumlashtirildi;
2. Musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa mashg'ulotlariga va musiqiy sozlarda ijro etishni shakllantirishda o'quvchilarini musiqiy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari yangicha usul, shakl, vositalar, yondashuvlar bilan boyitildi;
3. O'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa mashg'ulotlariga va musiqiy sozlarda ijro etish malakalarini oshirishda yangi pedagogik

texnologiyalar asosida o'qitish mazmuni, uning tashkiliy-texnologik jihatlarini maxsus tadqiq etildi;

4. O'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida musiqa mashg'ulotlari va musiqiy sozlarda ijro etish malakalarini rivojlantirishda, o'quvchilarga «Cholg'ushunoslik» fani o'qitilishi jarayoni samarali kechishiga xizmat qiluvchi uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Xalq ta'limi yo'nalishi musiqa ta'limi bo'yicha Davlat Ta'lim Standarti, o'rta maktab musiqa madaniyati darslari bo'yicha namunaviy fan dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq ta'limiga oid farmonlari, ma'ruzalari, asarlari, Xalq ta'lim musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid me'yoriy, uslubiy hujjatlar, pedagogika, psixologiya, etika-estetikaga oid manbalar.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.

Xalq ta'limi tizimida musiqa madaniyati darslarining o'qitilishi jarayonida maktab o'quvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash yangicha ilmiy, nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. O'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarini ijrochilik mahorati, bilim va malakalarini samarali shakllanishi darajasini belgilovchi mezonlar, tadqiqot muammosining ijobiy natijalarga erishishini kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ulardan O'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida "musiqiy ta'lim" yo'nalishi o'quv rejasida mavjud "Musiqa madaniyati" fanini o'qitishda, ilmiy maqolalar, ma'ruzalar tayyorlash, Bitiruv malakaviy ishlari yozishda ijodiy foydalanish mumkin.

Tadqiqotning asosiy nazariy g'oyalari va amaliy natijalari asosida 3 ta ilmiy-uslubiy maqola 1 ta uslubiy ko'rsatma nashr etilgan.

Monografiyaning tuzilmasi va hajmi. Kirish, uch bob, 6 ta paragraf, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 103 sahifani tashkil etadi.

Monografiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, metodologik asosi, ilmiy farazi, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlari asoslangan.

Ishning birinchi bobi **“Markaziy Osiyoda musiqa ilmi va musiqa sozlari haqida ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi”** deb nomlanib, unda o'rta maktab yuqori sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarini ijrochilik faoliyatiga tayyorlashning nazariy muammolari o'rganilgan, hozirgi vaqtda ushbu fanni o'qitilishidagi mavjud kamchiliklar ochib berilgan. Shu o'rinda musiqa madaniyati fani o'qitilishida o'quvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash maqsad va vazifalari va musiqiy tarbiya bo'yicha har bir o'quvchi va o'qituvchi uchun egallash zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi ifodalangan.

Ishning ikkinchi bobi **“Musiqqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilim va tushunchalarni o'rganishning ilmiy-amaliy asoslari”** deb nomlandi. Bunda o'rta maktab musiqa madaniyati darslarida yuqori sinfida o'quvchilarga musiqiy sozlarda ijro malakalari bo'yicha kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonining pedagogik va metodik shart-sharoitlari hamda ish usul va shakllari, vositalari haqida fikr yuritildi.

Monografiyaning uchinchi bobi **“Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlanib, uning mazmunida qo'llanilgan ish uslublarini samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari, uning tashkiliy asoslari, maktab o'quvchilarini ijrochilik kasbiy mahoratini shakllantirishini aks ettiruvchi ko'rsatgichlari va mezonlari tahlil qilindi.

Ishning umumiy **xulosalar** qismida o'rta maktab musiqa madaniyati jarayonida dirijorlik mashg'ulotlari amaliyotida o'quvchilarni musiqiy-kasbiy tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning mazmuni, bu

boradagi ishlarni samarali tashkil etishning yangicha metodik tizimi va yanada takomillashtirish yuzasidan umumiy xulosalar chiqarildi va tavsiyalar bildirildi.

I – BOB: Markaziy Osiyoda musiqa ilmi va musiqa sozlari haqida ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

1.1. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili

Musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotida, xususan cholg'u ijrochiligida milliy musiqa cholg'ularining ham o'ziga xos o'rni bo'lib, cholg'u ijrochiligi musiqa asarlarini paydo bo'lishida, musiqa madaniyatining rivojlanishida, asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha yetib kelishida asosiy omil hisoblanadi.

Musiqa cholg'ulari, cholg'u ijrochiligi har bir davrda musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, xalq cholg'ulari har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi. Musiqa cholg'ulari ijrosida esa har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo'lib turadi. Chunki milliy musiqa cholg'ularida asosan ko'proq har bir xalqning milliy musiqa merosiga oid musiqiy asarlari ijro etiladi va shu bois xalq cholg'ulari deb ataladi.

Har bir millatning musiqa merosi, milliy musiqa cholg'ularining ijrolaridagi sadolanish bilan bir-biridan farq qiladi va ijro musiqiy asarlarni qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Masalan: arab, fors, turk, hind, o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman musiqasi va hokazo. Hosil qilingan musiqa sadolaridan biri "nag'ma" deb atalib, "nag'ma" ikki xil nomlangan.

“Qavliy” bu tabiiy inson tovushidagi sadolar va “fe’liy” esa sun’iy deb sanalib, ya’ni musiqa cholg’ularidan chiqadigan musiqiy sadolar tushuniladi.

(Is’hoq Radjabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent- 1963. 12.s.).

Musiqa cholg’ularining ko’plari qadimiy musiqa cholg’ulari hisoblansa, ba’zilari esa keyingi yillarda ixtiro qilingan musiqa cholg’ularidir. Albatta dastlabki yaratilgan musiqa cholg’ulari oddiy, sodda ya’ni dastlabki musiqiy sadolar hosil qilinishining boshlanishi bo’lgan. Musiqa cholg’ularining yaratilish tarixi necha ming yilliklarga borib taqaladi. Bizning eramizda insho qilingan ba’zi bir musiqiy risolalardagi ma’lumotlardan birida go’yo dastlabki musiqa cholg’usi Fishog’urs (Pifagor) hakim tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. (I. Radjabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963. 17.s.)

Cholg’u ijrochiligi yildan-yilga boyib, takomillashib, rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg’u ijrochiligiga alohida e’tibor berilib, Boshlang’ich, Markaziyva Oliy musiqa dargohlarida “Cholg’u ijrochiligi” bo’limlari faoliyat ko’rsatib, barcha milliy musiqa cholg’ularining ijrolari o’rganilmoqda. Musiqa cholg’ulari uzoq yillardan buyon turlicha nomlanib kelinmoqda. O’zbekistonda “Xalq cholg’u asboblari”, arab tilida “ Oloti musiqiy”, fors tilida “Sozhoyi milliyi musiqiy”, “ Oloti musiqiy”, “Asbobhoi xalqiy”, rus tilida “Музыкальные инструменты”. lotin tilida “Miyuzikal instruments” va hokazo. Xalq cholg’ulari to’g’risida ko’pgina musiqiy risolalar, ilmiy risola va maqolalar, darslik va o’quv qo’llanmalari insho etildi. O’zbekistonda hozirgi kunda “Xalq cholg’u asboblari” o’rniga “Xalq cholg’ulari” bilan bir qatorda, “Milliy musiqa cholg’ulari” atamaları qo’llanilmoqda.

MUSIQA ILMIDA CHOLG’ULAR

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin bizning eramizdan avvalgi musiqiy ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat keyingi yillarda olimlarning qidiruvlari natijasida yer ostidan va joylardan topilgan uy ro’zg’or buyumlaridagi musiqa cholg’ularining va ijrochilarning

tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Masalan: "Avesto" asari 3000 yillik tarixga ega bo'lgan nodir asar hisoblanadi. Albatta o'sha davrlarda ham madaniyat, san'at xususan musiqa ijrochiligi ham bo'lgan. Tarixchi Mas'udiy-ning "Muruj az-zahab" (Oltin vodi) kitobida qayd etilishicha Aleksandir Makidonskiy Istahar shahrini bosib olib, olimlarga "Avesto" dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doir o'rinlarni tarjima qildirib, qolgan qismini yoqib yuborishni buyurgan. Mas'udiyning ma'lumotiga ko'ra "Avesto" matni 12 ming oltin taxtaga yozilgan.

(Tilab Mahmudov. Avesto haqida. Toshkent. 2000.6.s.).

Musiqa ilmi qachon paydo bo'lgan? degan savolga jo'ngina qilib, odamzod yaratilgan lahzada deb javob berish mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha Alloh Taolo Hazrati Odamni yaratib, uning vujudiga jonni kiritish jarayonida musiqa sadolari arzu samoni to'ldirib turgan ekan. Musiqa haqida gap ketganda "Jonbaxsh" sifatining qo'llanilishi ham shundan bo'lsa ajab emas".

(Nafas Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent. 1995. 3. s.).

Lekin musiqa ilmining qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Musiqa ilmi go'yo bir ilohiy kuch bo'lib, uning paydo bolishi haqida turli xil rivoyatlar mavjud. "Zuhro yulduzi xonanda-sozandalarning xomiysi hisoblangan. Cho'lpon yulduzi yoki Venera sayyorasi". (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV. Toshkent 1985. 316.s.).

Bizning eramizda yashab ijod etgan ko'pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga musiqa ilmiga ham alohida e'tibor berganlar. Masalan: Arestotel, Pifagor, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog'iy, Xorazmshoh, Jomiy, Navoiy, Kavkabi, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar. IX asrlardan boshlab "Musiqa" ilmiga va uning ijrochiligiga oid musiqiy asarlar paydo bo'la boshladi. Forobiyning "Kitobu-l-musiqiy al-kabir" (Musiqaga oid katta kitob), X-XI asrlarda Abu Ali Ibn

Sinoning “Kitobu-sh-shifo”, “Donishnoma” kitoblaridagi maxsus boblar, Abdulqodir Marog‘iyning “Maqosid-ul-alhon” (“Kuyalar maqsadlari”), Urmaviyning “Risolatush-sharafiya”, Qutbuddin Sheroziyning “Durratut-toj” musiqiy risolalari, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqiy” (“Musiqqa ilmi risolasi”), Kavkabiyning “Risolayi musiqiy” asari ya’ni “Risola dar bayoni duvozdah maqom” (“O‘n ikki maqom bayoniga bag‘ishlangan risola”), Husayniyning “Qonuni-ilmu va amaliyu musiqiy” (“Musiqqa ilmuning amaliy va nazariy qonunlari”), Darvesh Ali Changiyning “Tuhfatu-s-surur” (“Shodlik tuhfasu”) asarlari shular jumlasidandir. Komil Xorazmiyning “Tanbur nota chizig‘i”da esa maqomlar nota yozuvi berilgan. Yozilgan ilmiy asarlarda har bir mutafakkir olim o‘zi yashab ijod etgan davridagi musiqiy hayotga doir musiqqa ilmuni amaliy va nazariy sohalariga tegishli musiqqa cholg‘ulari va ularning ixtirochilari, sozanda, xonanda, bastakor, musiqashunoslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

MARKAZIY OSIYO MUSIQA CHOLG‘ULARI

X-XII asrlarda Markaziy Osiyoda musiqqa san’ati jumladan cholg‘u ijrochiligi ancha rivojlanib, o‘sha davrlarda juda ko‘p musiqqa cholg‘ulari musiqqa ijrochiligida keng qo‘llanilgan. Bu borada musiqashunos Darvesh Ali Changiy o‘zining musiqiy risolasida – chang, ud, nay, doyra musiqqa cholg‘ulari ayniqsa 5 va 6 qo‘sh torli “Ud” musiqqa cholg‘usi haqida ma’lumot berib, bu musiqqa cholg‘usining o‘sha davrdagi mavqeini va musiqqa ijrochiligidagi o‘rnini yuqori baholab, “Ud” barcha musiqqa cholg‘ularining podshohidir va “Rud” musiqqa cholg‘usi ham kamon vositasida ijro etilganligi haqida ma’lumot beradi.

Ma’lumki IX-X asrlarda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Ro‘dakiy o‘z zamonasida “Rud” va “Chang” musiqqa cholg‘ularining mohir ijrochisi bo‘lgan. O‘sha davrda yashagan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari yaratilib, bu asarda bir qancha mehnat qo‘shiqlari, qahramonlik qo‘shiqlari, umuman juda ko‘p turli xil qo‘shiqlar o‘z aksini topgan. X asrning buyuk allomasi musiqashunos olim Abu Nasr Forobiy (873-950) musiqqa ilmiga katta

e'tibor berib, musiqa cholg'ularining ijrolari, musiqa nazariyasi, "Sharq nota tizimi"ni yaratish va ularni o'sha davrdagi musiqa ijrochiligiga qo'llanish masalalari, matematika fanini mukammal o'rganish bilan birga, matematika fanining bir turi hisoblangan musiqa ilmni o'rganish va uni targ'ib etishga o'zining buyuk hissasini qo'shgan. Uning "Kitobu-l-musiqiy al kabir ("Musiqa ilmiga oid katta kitob") asarida turlicha musiqa usullari (zarblari), musiqa cholg'ularidan ud, tanbur, nay, chang va turlicha musiqiy ovozlar haqida ma'lumot berilgan. (M.M. Xayrullayev. Forobiy. Toshkent. 1963. 176 s.) X asr ashula san'atiga doir ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham o'z aksini topgan.

O'zbek adabiyotshunos olimi N. Mallayev qadimiy qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib X-XII asrlarda Markaziy Osiyoda musiqa cholg'ularidan – tanbur, rubob, kus(qo'sh) nag'ora, qubuz, tabl, zurna, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unun, qonun kabi hamda zarbli va puflama musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilganligi haqida, shuning bilan birga shu davrda "Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushshoq", "Zurafkand", "Bo'slik", "Sipaxon", "Navo", "Basta", "Tarona" va juda ko'p musiqiy asarlar ijro etilganligi haqida ma'lumot bergan.

(N.M. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 1965. 94 s).

Tibbiyot dunyosining allomasi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Ba'zi musiqiy risolalarda zikr etilishicha Abu Ali Ibn Sino go'yo Sulton Mahmud G'aznaviy, Nosir Xusravlar bilan birgalikda "G'ijjak" musiqa cholg'usini ixtiro qilganligi haqida ma'lumot berilgan.

(Askarali Radjabov. "Nag'mai Niyogon". Dushanbe. Adib. 1998. 194 s.)

X asrda yashagan Muhammad Ibn Muso al Xorazmiy ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Shunday qilib XII asrlarga kelib Forobiy va Ibn Sinolarning musiqa nazariyasi asosida Xorazmlik olim Ar-Roziy hamda Ash Sheroziy, Urmaviy, Amuliy va boshqa olimlar ham musiqa ilmi bilan shug'ullanganlar.

XIV-XVI asrlarda asosan madaniyat va san'at sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ulug'bek davrida ayniqsa Movarounnahr madaniyati ancha yuksaldi. Ulug'bek Samarqand va Hirotda mashhur buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar doirasida xususan o'sha davrda Sharqda mashhur Muhammad Xorazmiy, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin bin Mab'udiy, Ali Qushchi va boshqalar bilan birga ijod qildi. Abdurauf Fitrat Ulug'bek zamonasida Samarqandda yashab ijod etgan musiqa ilmining namoyondalari haqida ma'lumotlar beradi. Samarqandlik Darvesh Ahmad Qonuniy, Sulton Ahmad Noiy musiqa risolasining muallifi Qorako'lilik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos Sohib Balxiy, Shahrisabzlik bastakor Abdul Baraka, Navoiyning muallimi mashhur sozanda Xo'ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad G'aribiylar va hokazolar. Mashhur musiqashunos Hofiz Darvesh Ali Changiy o'zining "Tuhfat us-surur" ("Shodlik tuhfasi") asarida Ulug'bek ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan deydi.

(A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand- Toshkent. 1927 yil 58 s.).

Umuman Alisher Navoiy Hirotda adabiyot, san'at va madaniyatni yuqori darajaga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'shdi. Ayniqsa musiqa madaniyatining rivojida yangi kuylar, qo'shiqlar, musiqiy risolalar yozildi va bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Navoiyning iltimosiga binoan Abdurahmon Jomiy "Risolaiy musiqiy" asarini yozdi. Zaynylobiddin al Husayniy "Qonuni ilmi va amaliy musiqiy" ("Musiqashunos ilmining amaliy va nazariy qonunlari.") nomli musiqa risolasini yozib, uni Navoiyga bag'ishladi. Abdulqodir Marog'iyning "Maqosid ul alhon" risolasi yozildi. Navoiy o'zining "Majolisun-Nafois" asarida musiqa ilmi bilan ijod qilgan shoirlarni nomlarini tilga oladi. Abdulla Vafoiy Xorazmiy, Jomiyning jiyani movlono Muhammad hamda Xoja Abdullo musiqa sohasida ham ijod qilganligi, shu bilan birga Navoiy o'z zamonasining buyuk sozanda bastakori Xoja Yusuf Burxonni eslab, bu zot musiqa ilmi bo'yicha Navoiyning ustozlik ekanligi haqida ma'lumot beradi.

(Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. Jild III. 1948y. 13-112 s.)

XIV va XV asrlarda ilm fan, madaniyat va san'at sohasida faqat Samarqand va Hirotda emas balki bu davrda Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Kesh, Xiva kabi Movarounnahrning boshqa joylarida ham san'atning barcha sohalari kabi musiqa san'ati ham taraqqiy etdi. O'sha davrda Farg'ona hukmdori Umarshayx (Boburning otasi) o'z poytaxtiga ko'pgina madaniyat va san'at namoyondalarini to'plashga harakat qiladi. "Boburnoma" asarida Bobur osha davrdagi Andijon madaniyatining ravnaqi haqida gapirib, ushbu diyor musiqa namoyondalaridan Xo'ja Yusufni, Vosify esa Toshkentlik bastakor, sozanda shoh Husayn haqida ma'lumot beradi.

(Boburnoma. Toshkent. 1958. 12.s.). Shunday qilib Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi XIV-XVI asrlarda ilm-fan, madaniyat, san'at, musiqa, naqqoshlik, xattotlik va boshqa sohada katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

XV asr musiqa ilmi namoyondalaridan biri Najmiddin Kavkabiy bo'lib, Darvesh Ali Changiyning hikoya qilishicha Kavkabiy Hirotda tahsil ko'rgan bo'lib, uni Ubaydulloxon tomonidan Hirotdan Buxoroga olib kelinganligi va Kavkabiy bu yerda o'zining musiqa maktabini yaratib, Xo'ja Muhammad, Rizo Samarqandiy, Xo'ja Hasan Nisoriy, Hasan Kavkabiy, Boqi Jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlab, o'zining musiqa sohasidagi buyuk musiqa risolasi "Risolaiy musiqiy" ya'niy "Risola dar bayoni duvozdah maqom" asarini yaratdi.

XVI asrga kelib, madaniyat, san'at jumladan musiqa san'ati ham tushkunlikka tushdi. Urushlar kuchayib ketdi. Natijada 1716 yilda Farg'onada O'zbeklar urug'idan hisoblangan Shohruxbiy Qo'qonni Buxorodan ajratib Qo'qon xonligini barpo etdi. Keyinchalik Turkiston XVII asrlardan boshlab Buxoro, Qo'qon, Xorazm xonligiga bo'linib ketdi. Ma'lumki Markaziy Osiyo xalqlari juda ko'p tarixiy voqeyalarni boshidan kechirib, har bir davrda barcha fanlar qatori musiqa ilmi ham goh rivojlanib, goh tushkunlikka uchrab musiqa cholg'ulari ijrosi, sozanda va xonandalar, musiqashunoslar turli xil holatda yashab ijod etishdi. Yuqoridagi Markaziy Osiyo hududidagi mavjud musiqa cholg'ulari turli xil jarayonlarni boshidan kechirib, ko'pgina musiqa cholg'ulari,

urushlar jarayonida boshqa davlatlardan keltirilib, baʼzan boshqa xorijiy davlatlarga olib ketilib turli xil holatlarda musiqa ijrochiligida qoʻllanilgan. Umuman Markaziy Osiyo madaniyati butun Sharq madaniyati rivojiga katta hissa qoʻshdi. VII asrlardan boshlab Markaziy Osiyo musiqa sanʼati shu darajada rivojlanganligidan ham tarixda Borbad Marvaziy nomli turkistonlik bastakor, hofiz, sozandaning nomi zikr etilgan. U VII asrlarda Faxlobod (Borbad) nomi bilan mashhur boʻlib uni Eronga olib ketishgan. Faxlobod oʻzining musiqa maktabini yaratib, oʻn ikki maqomni baʼzi bir nusxalarini yaratilishiga asos solgan, yani Turkiston musiqasini Eronga tarqatgan.

(“Maʼrif va madaniyat”) jurnali. Baku. 1923 y. N 8. 9 s.).

Har bir asr, davrda milliy musiqa ijrochiligida qandaydir musiqa cholgʻusi asosiy yetakchi oʻrin egallagan. Masalan: Sarq xalqlarida jumladan Markaziy Osiyoda VII asrlardan to XVIII asrlargacha musiqa ijrochiligida “Oʻn ikki maqom” nomi bilan ataluvchi turkum asarlar ijro etilib, bunda “Ud” cholgʻusi asosiy hisoblangan boʻlsa, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlanishida Markaziy Osiyoning adabiyot, sanʼat va madaniyat rivojlangan shaharlaridan biri Buxoroda “On ikki maqom” turkumi oʻrniga “Shashmaqom” shakillanib, buning ijrosida esa “Tanbur” asosiy musiqa cholgʻusi boʻlgan.

Markaziy Osiyo hududidagi - Oʻzbekiston, Tojikiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston davlatlarida turli-tuman musiqa cholgʻulari boʻlib, bu davlatlarda bir xil nom bilan ataluvchi lekin turli xil asarlarning ijrosiga moʻljallangan musiqa cholgʻulari milliy musiqa ijrochiligida keng qoʻllanilmoqda . Ular – Tanbur, dutor, doyra, rubob, surnay, karnay, gʻijjak, nogʻora, chang, qobuz va hokazo. Shu qatori ayrim viloyatlarning oʻziga xos musiqa cholgʻulari boʻlgan. Xorazmda- bulamon, garmon, tor, Buxoroda- Afgʻon rubobi, Fargʻona viloyatida- qoʻshnay, dutor musiqa cholgʻulari bor. Abdurauf Fitrat oʻzining “Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida maʼlumot berishicha 1920 yillarda Buxoroda-tanbur, dutor, nay, qoʻshnay, qobuz, doyra, rubob, nogʻora, karnay, sunray, doʻmbra kabi musiqa cholgʻulari

ijrochilikda qo'llanilgan. Hozirgi Tojikiston hududi to Afg'oniston chegarasigacha janubiy Buxoro deb atalgan. Undan tashqari juda ko'p xorijiy davlatlar bilan chegaradoshdir. Masalan: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Afg'oniston hamda Xitoy, Hindiston, Pokiston kabi ko'p davlatlar bilan chegaradosh, ba'zilariga yaqin. Tojikistonning Tog'li Badaxshon Avtanom viloyatida Pomir rubobi, Badaxshon rubobi, blandzikom va Badaxshon tanburi, Badaxshon setori, Pomir nayi, qumri, do'mbra, jig'ak, gaf, labchang, panjtor, duvozdah tor (o'n ikki torli) va boshqa nom bilan ataluvchi musiqa cholg'ulari ijrochilikda qo'llanilmoqda. Tojikistonning Xo'jand, O'ratepa, Isfara, Konibodom kabi manzilgohlari Farg'ona vodiysi bilan chegaradosh bo'lib, musiqa ijrochiligi ham bir-biriga yaqin. Ko'lob, Qorategin, Darvoz, G'arm manzilgohlarida cholg'u va ashula yo'li ijrosiga xos musiqiy asarlar ijrolarida ko'proq dumbra, tablak, jig'ak (g'ijjak) kabi musiqa cholg'ulari qo'llaniladi. Ayniqsa Markaziy Osiyoning barcha hududlarida dutor, do'mbira, doyra, g'ijjak, nay ko'proq uchraydi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo hududida qadimiy musiqa cholg'ulari bilan bir qatorda ko'p ovozlilikka moslashtirilgan (rekonstruksiya) musiqa cholg'ulari mavjud. Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe, Olma Ota, Samarqand shaharlarida Markaziy Osiyo va Umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar o'tkazilib, milliy musiqa ijrochiligiga xos asarlar, jumladan milliy musiqa cholg'ularining ijrolari namoish etilmoqda.

1.2. Sharq mutaffakirlarining cholg’u sozlari rivoji va takomillashuviga qo’shgan hissalar

Kundalik hayotimizda, jamiyatimizning madaniyatini vujudga keltirishda, uning ma’naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog’lom fikrli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda musiqa san’atining o’rni ahamiyatli bo’lib kelmoqda. Jumladan, mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan kuy va qo’shiqlar kishi qalbini o’ziga rom qilib, asrlar osha xalq uchun ilhom manbai bo’lgan va insonlarga ma’naviy ozuqa berib kelgan.

Xalqimiz o’zlarining bebaho musiqa durdonalarini yaratgani uchun bu asarlar hozirgi milliy musiqamizga asos bo’lish bilan bir qatorda, doimo go’zallikka tashnalik sezgan inson qalbi to’ridan o’rin olib kelmoqda. Inson qalbi go’zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda go’zallik muhitidan ozuqa oladi va shakllanadi.

“Musiqa - bu san’at, san’at esa mo’jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san’at vositasidagina kirish mumkin” degan edi sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino.

San’at – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma’naviy anglashning maxsus turidir. San’atning turli ko’rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o’zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi (Masalan, musiqa – tovushlar, ularning o’zaro bog’lanishi, uyg’unligi orqali). Lekin shu bilan birga, ular o’rtasida ma’lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning hammasida voqelik badiiy - obraz tarzda aks ettiriladi.

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san’at alohida o’rin tutadi. Shuningdek, san’at inson ma’naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovshi vositalardan biridir. San’at insoniyatning ezgulik tomon harakati uchun zarur bo’lgan o’zaro muloqotlar vositasi bo’lib, turli qit’alar va davlatlarni o’zaro bog’laydi. San’at odamlarning

his - tuyg'ularini, tafakkurini mavhum tarzda emas, balki jonli badiiy qiyofalarda aks ettiradi, chunki u o'ziga xos his - tuyg'ular xazinasidir.

San'at asarlari yaratilishi ikki narsani, ya'ni badiiy obrazli tafakkur qilishni hamda uni amalda ifoda eta olish malakasini o'z ichiga oladi. San'at ilohiyotning tuhfası, ijodiy mehnat mahsulidir. Agar badiiy obrazli fikr yuritish voqelikni badiiy o'zlashtirish imkonini tug'dirgan bo'lsa, faqat ijodiy mehnatgina uning voqelikka aylanishiga asos bo'la oladi.

San'atning barcha turlari badiiy shaklga ega bo'lib, u ko'proq asar tuzilishi (kompozitsiyasi) bilan bog'liq. Asar tuzilishi tomoshabin yoki o'quvchi diqqat-e'tiborini g'oyaviy muddaoga qaratish imkonini beradi.

G'oya asar mazmunining asosini tashkil qiladi. Asarning g'oyaviyligi uning mazmundorligidan darak beradi. Shunday qilib, san'at asarlarining mazmuni badiiy g'oya, asar mavzusi, asar syujeti hamda san'atkor tomonidan baholangan hayot hodisalarining yig'indisini tashkil qiladi.

Bu san'at turi barcha davr daholari e'tiborini o'ziga jalb qilib keldi. Arastu: "Musıqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatuvchi quvvatga ega. Musıqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo'shilmog'i lozim", - deb ta'kidlaydi.

Boshqacha qilib aytganda "Musıqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyalaydigan predmetlardan biri bo'lib xizmat qilmog'i lozim", - degan edi. Jumladan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini oshirishda musıqa tengsiz ahamiyat kasb etadi.

Musıqaning keng ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o'rta asr mutafakkirlari A. N. Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuqori baholashganlar va bu haqda maxsus asarlar ham bitganlar.

Abu Nasr Forobiyning (873-950) “Katta musiqa kitobi” (“Kitob al - musika al kabir”), Ibn Sinoning (980-1037) ”Davolash kitobi” (“Kitob ush-shifo”) qomusidagi “Musiqa haqida risola”, Al-Xorazmiyning (X asr) ”Bilimlar kaliti“, Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) ”Oliyjanoblik haqida kitob“ yoki “Sharafiya kitobi”, Jomiyning (1414-1492) “Musiqa haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg’ulari haqida muhim ma’lumotlar bayon etilgan.

Ibn Zaylining (1044-yilda vafot etgan) ”Musiqa haqida to’liq kitob”i (“Kitob ul- kabi fil-musiqiy”) uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni –musiqada ladlarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi.

Abduqodir Marog’iy (XV asr) Abduqodir Ibn-G’oyibiy (Marog’iy) Ozarbayjonning Marog’ shahrida tug’ilgan bo’lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida –Samarqandda o’tgan va Hirotda vafot etgan. ”Musiqa ilmida ohanglar to’plami” (“Jami a-alxan fi-ilm al-musiqiy”) risolasida musiqa haqida ta’limotni –kamoncha, yetti torli g’ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg’ulari borligi haqidagi ma’lumotlar bilan boyitdi.

Qutbiddin ash - Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo’lib, o’z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozini musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblangan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o’z risolasidagi tanbur, chang, qonun, barbot, chag’ona, ud, rud, rubob, qobuz, g’ijjak, shemane, ruxavza, kungura kabi musiqa cholg’ulari haqida batafsil ma’lumot bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg’ularini o’rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari – “Musiqa haqida katta kitob” (“Kitob al-musiqa al-kabir”) ulkan ahamiyatga ega. O’rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo’shiq san’ati) va cholg’ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg’ularining jamiyat hayotidagi rolini

o'rganishga ahamiyat beradi va u: "...Jangu-jadallarda, raqslarda to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor", - deb yozgan edi.

Forobiyning yuqorida keltirilgan fikri cholg'ularning turli - tumanligi va ularning nafaqat saroy a'yonlari, balki shahar va qishloq aholisi hunrmandlari orasida, shuningdek musiqa madaniyatida yetakchi rol' o'ynaganligini tasdiqlaydi.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan oxir o'sha davr musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shohruh, qonun va boshqa musiqa cholg'ulari izchil va batafsil ta'riflanadi. Forobiy torli – mizroblu lyutnyani o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'u hisoblagan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lada) lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelinyapti. (Zamonaviy ud namunalari Toshkent Davlat Konservatoriyasining sohaviy –tajribaviy sinovhonasida mavjud.).

“Musiqha haqida katta kitob” da Forobiy yana bir cholg'u asbobi – tanburni ham ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turadigan cholg'ulardan biridir. Tanburda torlar noxun yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg'udir. Tanburning ikki yoki uch lez tori bo'lgan. Uning ikki turi ma'lum: Xuroson va Bag'dod tanburlari. Bag'dod tanburining maqomlari kamroq (beshta), cholg'u dastasi kaltaroq bo'lgan. Xuroson tanburining maqomlari ko'p bo'lgan, dastasi cholg'u bo'g'zidan to dastaning yarmigacha oralig'ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o'z shaklini yo'qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanaovoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Forobiy shuningdek nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish printsipiga ko'ra naysimon guruhiga kiritadi, ya'ni nay quvurida havoning damli harakati orqali tovush hosil bo'ladi. Ulardan

biri oddiy nay yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi bo'ylama naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni v'yetnamliklar "sao", tojiklar "tutek", tatarlar "kaval", qozoqlar "sibizg'a", ozarbayjonlar "ney", qirg'izlar "yoo", "choor" (cho'ponlarning cholg'u asbobi), o'zbeklar "nay" deb ataydi.

Olimlar ko'pincha o'rik yoki tut daraxtidan ishlanadigan keng tarqalgan surnay haqida ham to'xtaladi.

Forobiy shuningdek, dunay (mizmar) ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo'shnay yoki turkman xalq cholg'usiga o'xshab – dilli tyuy dyuk (qo'sh qamish naychadan tuzilgan cholg'u) ga o'xshaydi.

Forobiy risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshab rezonator va uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo'lgan: Biri yog'och dekali va asosiy qismi yog'ochdan, ikki pastki qismi charmdan ishlangan dekali.

Forobiy shahodat berishicha, chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular raqs, ashula, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Forobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rolni o'ynagan. "Cholg'u asboblari haqida kitob" da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohaga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

Yashagan davriga ko'ra buyuk olim ibn Sino Forobiyga juda yaqindir. Uning "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusining "Musiqa haqida

risola” bobida o’sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy – falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolada cholg’ular ta’rifiga anchagina o’rin ajratilgan. Ibn Sino o’z davri musiqalarini ikki guruhga bo’ladi: mizrobli, noxunli, (barbad, tanbur, rubob) va butun rezonator qopqog’i bo’ylab tortilgan ochiq torli cholg’ulari (shohruh, chiltor, lira, chang (arfa)).

Inson ovozi azaldan eng mukammal cholg’u hisoblangan. Torli - mizrobli yoki torli - kamonchali musiqa cholg’ulari ijrochilari hamisha o’zlari yaratgan kuylar ohangini inson ovozigacha yaqinlashtirishga bunda o’zgacha bir musiqiylikka erishishga, ohangni ta’sirliroq, samimiyroq, ravonroq chiqarishga intilishgan. Olim ohangi inson ovozigacha juda yaqin turgan cholg’ular ud va rubobni batafsil ta’riflagan. Bunda rubob tushunchasi ostida g’ijjakka o’xshagan, torlari kamoncha bilan chalingan musiqalari nazarda tutilgan. Damli cholg’ular ichida risolada nay (fleyta) va surnay, shuningdek Vizantiya organun (muzmar, muzamir) ni keltiriladi.

Abu Ali ibn Sinoning “Al-muddohil ila san’atal musiqiy” asari ham mavjud bo’lib, u mazkur asarda shunday yozadi: ”Musiqiy hayotbaxsh, oliyanob, axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi. Uning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi”. Olimning musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqida qarashlari Arastu fikrlari bilan hamohangdir.

Bundan tashqari, ibn Sino o’zining tibbiyotga oid “Kitobdan – Najot”, ”Kitob ash - Shifo”, ”Donishnoma” kabi asarlarida ham musiqa nazariyasi va amaliyoti xususida nodir fikrlarni bayon etib qoldirgan.

O’rta Osiyo olimlari Forobiy, ibn Sino, Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali Changiy kabi allomalarning musiqa haqidagi kitoblari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va musiqa ilmi rivoji uchun hozir ham xizmat qilib kelmoqda.

O’sha davrda Sharqning taniqli mutafakkiri Safiuddin Urmaviy musiqa ilmi tizimini rivojlantirdi. U usta, ud cholg’uchisi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib borgan tajribalariga tayanib olim o’z nazariy qoidalarini bayon etdi. U Ozarbayjonning Urmiya shahrida tug’ilgan.

Safiuddinning eng katta yutug'i lad ("modus") larining mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir.

Urmaviyning "Taqvodorlik kitobi " da ud ta'rifi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: "Bilginki, cholg'u asboblari ichida ud deb ataluvchisi eng mashhur va eng zamonaviydir". Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari "bam", "masnas", "masne", "zir" va eng yuqorisi "hadd" deb atalgan. Besh qo'sh torli, takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan (shu kunlargaacha Armaniston, Ozarbayjon va O'zbekistonda saqlanib qolgan ud ham besh qo'sh torli, lekin maqom (lad) siz). Udning kvartaga mos sozlangan besh qo'sh tori va yetti maqomi (ladasi) haqida Sheroziy (1236-1311), Jomiy (XV asr), Al - Husayniy, Marog'iy, ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning "Musiqqa haqida risola" sida keltirilgan ud dastasining to'la chizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Uning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy yetuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinnglovchilarga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyat bor, deb hisoblaydi.

Abduqodir Marog'iy (XV asr) Abduqodir Ibn-G'oyibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan bo'lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida –Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqqa ilmida ohanglar to'plami" ("Jami a-alxan fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqqa haqida ta'limotni –kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Marog'iyning XIV asrda yaratilgan "Kanz al - Tahaf" risolasida g'ijjak va rubob haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Masalan, Marog'iy o'zining risolasida g'ijjak yasash usuli (texnologiyasi) haqida ma'lumot beradi. Olimning tasdiqlashicha ipak yoki pay torlar jez torlarga nisbatan ancha yaxshi va mayin ohang chiqarishi mumkin ekan.

Qo'sh torli cholg'u – dutor haqidagi ilk ma'lumotlar Al - Husayniyning XV asrda yaratilgan musiqqa kanonlarida uchraydi. "Dutor" atamasining paydo

bo'lishiga uni shaklan o'xshash, ko'p torli boshqa cholg'ulardan (ozarbayjoncha soz, tanbur, ud kabi) farqlash asosiy sabab bo'lgan.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan. Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy xalq cholg'ulari haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqa ma'daniyati, chunonchi O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlar O'rta Osiyo musiqasini o'rganishga qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg'uchilar, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan. Risolaning V va VI boblari o'sha davrda ko'pgina Sharq mamlakatlarida qo'llanilgan xalq cholg'ulari haqida ma'lumot batafsil bayon qilinadi.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari torli, mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi. Udning juft sozlangan o'n ikki tori bo'lgan. U Forobiy davridagi dastlabki uddan birmuncha farq qilgan. Darvish Alining ma'lumotlarga qaraganda, oltinchi quyi tor (muxtalif) cholg'usining pastki diapazonini (bas registrini) kengaytirgan.

Risolada yozilishicha chang cholg'ular homiysi – Zuhraga bag'ishlangan. Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo'lgan. Nay qadimiy cholg'ularning biri sifatida tilga olinadi. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qobiz, g'ijjak, musiqor, enbon – nay, (damli, charmli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ular ham tilga olingan.

Darvish Alining ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi: tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobiz, g'ijjak o'sha davrda eng keng tarqalgan cholgular edi. Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amalliytida dastlab ansamblda uyg'un

kolorit hosil qiladigan torli - noxunli va torli - kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abdullohi – Lori, mavlono Mirek changiy Buxoriy, Mavlono Qosim - I Rabboni, Sulton – Ahmad - i- devona”, rubobchilar aka-uka Shayx – Abu – Bakr - I Rabboniy va shayx Behduchi Dono, qonunchi shayx Shamsi Rabbinii va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olinadi.

G'ijjak cholg'uchi Shoh Quliy - G'ijjakiy shu musiqa asbobida ajoyib ijrochilik mahoratini ko'rsatgan va cholg'u kuylarini yaratgan usta san'atkor bo'lgan. Uning yaratgan kuylari orasida muhammas ritmida yaratilgan peshravi ”Husayniy” alohida ajralib turadi.

Naychi Sulton Axmadni Darvish Ali mashhur cholg'uchi sifatida tilga oladi. Risola muallifining yozishicha, u chalgan nayning sehrli ohanglari musiqa san'ati ixlosmandlarida chuqur taassurot qoldirgan.

Ud cholg'uchisi Sulton – Muxammad – Uddiy - Samarqandiyini muallif noyob iste'dodli cholg'uchi, musiqiy asarlar ijodkori sifatida aks ettirgan.

Buxorolik Shayx Shamsiy - Rabboniy mohir rubob cholg'uchisi, mashhur sozanda sifatida tanilgan. Uning ijrosi tinglovchilarga shu qadar kuchli ta'sir qilganki hech bir kishini befarq qoldirmagan. Rubobinning ohangini eshitib, betakror ijrosidan hayratga tushgan odamlar chor atrofdan to'planayverishgan ekan.

Taniqli cholg'uchi darviish Shadiydan ud va chang chalish mahoratini egallagan uning shogirdi mohir sozanda Mavlona Zaynulla Bedaniy Rumi ko'pgina peshravlar (isfahon, saqil, peshrav, far va boshq.) ijodkori edi.

Xalq cholg'ularining ko'zga ko'ringan ijrochilaridan biri Ali Shunqor Dugoh ohanglarida, Turk - zarb ritmida yaratilgan asarlar bastakori sifatida tanilgan. Uning “Savti begumiy”, ”Naqshi begumiy” (bo'yoqdor - ohangdor kuylar) ohanglari xalq orasida keng yoyilgan.

Ijrochilikda yetuk bo'lgan Mavlon Shayxiy Tebes – Gileksiy - ibn-Abdurahmoniy - Rumiyy (Rud), Ustad Zaytuniy - G'ijjakiy, Xo'ja - Mahmudbek Ishoqiy Shehaniy (dutor), Sayid Ahmad – bin - Mehtariy Miraqiy, Ustad Qurbon Sa'diy, ustod Poyonda (surnay va nog'ora), Ustad – Amir - Quliy Tanburiy (tanbur), Ahmad Qonuniy Samarqandiy (qonun), Shayx Ahmadiy Qibiziy (qobiz), Yusuf Mavludiy dutori Hirotiy (dutor), ustod G'uloqiy Nayi Ustad Abdusattor-Qonuniy, Ustad Arab - Navziy Qobiziy, Zo'jagi Ja'fairy Qonuniy, Hafiz Boboiy Qonuniy, hafiz Turdiy Qonuniy va boshqa xalq cholg'u ijrochilari muhim o'rin tutganlar.

Darvish Ali o'sha davrda mavjud bo'lgan cholg'u ansambllari va ularning ijrochilari haqida, ular Sulton Muhammad saroyida turli xil tantanalarda, qabullarda, dam olish kechalari va yaqin kishilar davralarida doimo ishtirok etganlari haqida xabar beradi. Saroyda nog'oraxona, deb atalgan 60 ijrochidan tashkil topgan cholg'uchilar ansambli bo'lgan. Ularni nog'orachi (maestro) boshqargan. U misol tariqasida shunday dalilni keltiradi: "Sulton Husayin saroyida ansambl rahbari – mehtar vazifasini yetuk nog'orachi Sayid Ahmadbin mehtariy –Miroqiy bajargan. Darvish Ali bu sozandaning mahoratini yuksak baholab, uni "tengsiz cholg'uchi, bu dunyoning katta-yu kichik mo'jizalari ko'rki", deb ta'riflagandi. Saroyda ko'p sonli sozandalarning saqlanishi, ularning hordiq chiqarishi, tantana va bayramlarni tashkil etishdagi ahamiyati, xalq cholg'ulari ijrochiligi aholining turli tabaqalari orasida keng tarqalganligi haqida taxmini to'liq asoslaydi.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan muhimki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qobiz, doira, nog'ora, ud).

O'rta Osiyoning Ozbekiston, Tojikiston va boshqa respublikalarida, shuningdek Ozarbayjonda bizning kunlarga saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy hayotida

keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari, deb atash o'rindir.

Darvish Ali o'sha zamonning buyuk xalq cholg'uchilari ijro etgn ko'p qisimli, turkum musiqiy asarlar maqomlarning katta ahamiyati haqida so'z yuritgan. O'rta asr sharq olimlarining asarlarida musiqa cholg'ular, ular yaratgan ma'naviy va madaniy muhit haqida ma'lumot juda oz. Risolalarda ta'kidlanishicha, ijrochilar aynan o'ziga xos ijrochilik amaliyoti asosida musiqa nazariyasini ishlab chiqishgan va xalq cholg'ularining mavjud shakllarini ta'riflashgan.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlandi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralaridagi cholg'uchilar tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sa'diy, Navoiy, Nasimiy, Fuzuliy, Beyhaqiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyod xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Firdavsiyning "Shohnoma" asari (XIV asr) musavvir Muhammad Muqum Xisrav oldida ud chalayotgan VI asr cholg'uchisi Barbodni tasvirlagan. Asardan cholg'ularning ikki guruhga – xonaki cholg'ulari (chang, ud, lyutnya, fleyta, nay) va shovqin damli cholg'ulari (karnay, litavralar, buben, baraban, gong) ga bo'linganligi ma'lum bo'ladi.

Abdul Fayz Bayhaqiy (XIV asr) asarlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur) damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, litavra va baraban) singarilarning nomini keltirgan.

XV-XVII miniatyuralarida chang (arfa), doira, lyutnya, barbat, ud, qonun, g'ijjak, soz, nay, rubob, tanbur kabi cholg'ulari tasvirlangan. "Shohnoma" ning XV asr o'rtalarida ko'chirilgan nusxasidagi miniatyura parchasida chang, ud, tanbur va robo cholg'ulari aks ettirilgan.

1-bob bo'yicha xulosalar

Musiqa cholg'ulari, cholg'u ijrochiligi har bir davrda musiqa ilmining amaliy va nazariy taraqqiyotiga asosiy manba hisoblanib, xalq cholg'ulari har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga mos ixtiro qilinadi. Musiqa cholg'ulari ijrosida esa har bir millatning musiqa ijrochiligiga xos milliy musiqiy sadolanish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari, musiqiy holat, musiqiy asarlar, ijro bezaklari, mahorat va boshqa musiqa ijrochiligiga mansub masalalar namoyon bo'lib turadi.

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin bizning eramizdan avvalgi musiqiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat keyingi yillarda olimlarning qidiruvlari natijasida yer ostidan va joylardan topilgan uy ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ularining va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz.

X-XII asrlarda Markaziy Osiyoda musiqa san'ati jumladan cholg'u ijrochiligi ancha rivojlanib, o'sha davrlarda juda ko'p musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilgan.

X asrning buyuk allomasi musiqashunos olim Abu Nasr Forobiy (873-950) musiqa ilmiga katta e'tibor berib, musiqa cholg'ularining ijrolari, musiqa nazariyasi, "Sharq nota tizimi"ni yaratish va ularni o'sha davrdagi musiqa ijrochiligiga qo'llanish masalalari, matematika fanini mukammal o'rganish bilan birga, matematika fanining bir turi hisoblangan musiqa ilmuni o'rganish va uni targ'ib etishga o'zining buyuk hissasini qo'shgan.

Har bir asr, davrda milliy musiqa ijrochiligida qandaydir musiqa cholg'usi asosiy yetakchi o'rin egallagan. Masalan: Sarq xalqlarida jumladan Markaziy Osiyoda VII asrlardan to XVIII asrlargacha musiqa ijrochiligida "O'n ikki maqom" nomi bilan ataluvchi turkum asarlar ijro etilib, bunda "Ud" cholg'usi asosiy hisoblangan bo'lsa, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlanishida

Markaziy Osiyoning adabiyot, san'at va madaniyat rivojlangan shaharlaridan biri Buxoroda "On ikki maqom" turkumi o'rniga "Shashmaqom" shakllanib, buning ijrosida esa "Tanbur" asosiy musiqa cholg'usi bo'lgan.

San'at – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari – "Musiqqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqqa al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi turli cholg'ular, shuningdek, damli cholg'u nayning ta'riflari berilgan. Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi an'anaviy xalq cholg'ulari haqidagi ma'lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqa ma'daniyati, chunonchi O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqida nodir ma'lumotlar mavjud.

XV-XVII miniatyuralarida chang (arfa), doira, lyutnya, barbat, ud, qonun, g'ijjak, soz, nay, rubob, tanbur kabi cholg'ulari tasvirlangan. "Shohnoma" ning XV asr o'rtalarida ko'chirilgan nusxasidagi miniatyura parchasida chang, ud, tanbur va robo cholg'ulari aks ettirilgan

II – BOB: Musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilim va tushunchalarni o‘rganishning ilmiy-amaliy asoslari

2.1. Markaziy Osiyo musiqa ilmidagi musiqa sozlarining shakllari va ularning tovushqatorlari

UD MUSIQA CHOLG‘USI

Ud (arab. — qora daraxt) — torlimeszrobli qad. musiqa asbobi. Arab, turk, fors, Kavkaz (ozarbayjon, arman) va Markaziy Osiyo (o‘zbek, tojik) xalqlarida keng qo‘llaniladi. Katta, noksimon va yupqa qopqokli kosaxona, kalta va enli dastaga ega. Tovushi yumshoq va mayin. Ayritom xarobasidan udsimon cholg‘uni ushlab turgan sozanda ayol tasvirlangan friz topilgan. 9— 15-asrlarda Sharq musiqa nazariyasi (tovushqator, parda, maqomlar) masalalarini sharhlab berishda Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin alUrmaviy, ashSheroziy va boshqalarning risolalarida U. yetakchi soz hisoblangan. Uning dastlab 4 tori bo‘lganligi, Ziriyob ismli (9-asr) sozanda (ayrim manbalarda Forobiy) tomonidan 5 tor qo‘shilganligi ma‘lum. Torlar kvartaga sozlanib forscha va arabcha — hodd, zir, masna, maslas, bam deb nomlangan (qarang [zirubam](#)). Ud pardalari esa mutlaq (ochiq tor), zoid (ochiq torga nisbatan orttirilgan), mujannab (qo‘shni parda), sabbob (ko‘rsatkich barmoq bilan bosiladigan), vustai furs (o‘rta barmoq bilan bosiladigan fors pardasi), vustai zalzal (Zalzalga nisbat berilganuim). Ld parda), binsir (to‘rtinchi barmoq bilan bosiladigan parda), xinsir (jimjiloq bilan bosiladigan parda) deb yuritilgan. Risolalarda pardalar abjad tartibida arabcha harflar bilan belgilangan. Hozirda qo‘llaniladigan U. pardasiz va 11 torli. Ulardan 5 tasi juft torlardan, pastki tori bitta bo‘ladi. O‘zbekistonda musiqa kollejlari va O‘zbekiston davlat konservatoriyasida U. sinflari mavjud. U., asosan, jo‘rnavor (mumtoz musiqa ansambllari) va yakkanavor soz sifatida qo‘llaniladi. U. asosida Yevropada lyutnya cholg‘usi kashf etilgan.

Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida eng qadimiy musiqa cholg‘ularidan biri bu “Ud” cholg‘usi bo‘lib, butun Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qariyb

TANBUR MUSIQA CHOLG‘USI VA SHARQ XALQLARIDA MAVJUD TANBUR OILASIGA MANSUB MUSIQA CHOLG‘ULARI

Tanbur — torli musiqa asbobi. O‘zbek milliy cholg‘ularidan biri hisoblanadi. O‘zbek mumtoz maqomlari aynan tanbur cholg‘usida ijro etilgan. Tanbur o‘ng qo‘lning ko‘rsatgich barmog‘iga maxsus noxun (mediator) taqib chalinadi. Chalinganda faqat birinchi simi chertib chalinadi, qolganlari esa sadolanib turish uchun xizmat qiladi. Forobiyning musiqa risolasida Xuroson tanburining parda tuzilishi keltirilgan. Tanbur o‘zbek, tojik, uyg‘ur va boshqa xalqlarda professional soz sifatida keng tarqalgan. Asbobning chortor (4 torli), panjtor (5 torli), shashtor (6 torli) turlari bor. Tanburning elektr adapter bilan jihozlangan turlari estrada ijrochiligida qo‘llaniladi.

Tanburning noksimon o‘yma kosasi yo‘g‘on va uzun dastasi bilan birga yaxlit tut yog‘ochidan yasaladi. Tanburning umumiy uzunligi 110-130 sm. Kosasining qopqog‘i, ko‘pincha, yupqa yog‘och taxtachadan qilinadi, unda rezonator teshikchalari bor. Dastasiga ichakdan qilingan pardalar bog‘lanadi. Tanburning pay ip bilan bog‘langan 16-19 pardasi bo‘lib, oltinchisi, odatda, ijro etiladigan asarning ladtonallik xususiyatiga ko‘ra yuqori yoki pastga surib qo‘yiladi. Tanburning 3 ta toridan birinchisi (yuqoridan) asosiy, 2 tasi yordamchidir; birinchisi va uchinchisi unisonga, ikkinchisi ularga nisbatan kvarta, ba‘zan kvinta yoki sekunda past sozlanadi. Asbobning diapazoni ikki yarim oktavaga yaqin.

Tanbur qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘iga kiyiladigan noxun bilan turli uslubda (torlarni yuqoridan va pastdan urib) chalinadi. Tanbur O‘zbekistonda boshqa torli chertma sozlardan farqli o‘laroq, diatonik tovushqatorga ega. Tanburning torlari uzun va ingichka, pardalari yo‘g‘on (diametri 3 mm gacha) bo‘lganligidan torni turlicha kuch bilan bosib, tovush balandligini yarim tongacha o‘zgartirish mumkin. Mazkur yo‘l bilan tanburda kuylarga o‘ziga xos tebratma sayqal, nolalar beriladi.

Tanburning o'ziga xos nozik va ta'sirchan ovozi, keng diapazoni tufayli Buxoro Shashmaqomi ijrosida asosiy yakkanavoz va (vokal qismlarda) jo'rnavoz soz hisoblanadi. Tanbuning keng badiiy imkoniyatlari Turg'un Alimatov va uning shogirdlari talqinida namoyon bo'lmoqda. O'zbek bastakorlaridan Hoji Abdulaziz, Jo'raxon Sultonov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov, kompozitorlardan Sayfi Jalil Sayfi jalil („Qalbimda“), M. Mahmudov („Navo“ simfoniyasi), Mustafó Bafoyev („Lison uttayr“) va boshqalar tanbur imkoniyatlaridan ijodiy foydalanishgan.





Uyg'ur, Afg'on, Arman va Turk tanburlari

SATO MUSIQA CHOLG'USI

Musiqa cholg'u asboblarida. tovush manbalariga qarab guruxdarga, ijrochilik uslubi (yoki ishlatilgan mexanizmi)ga qarab guruhchalarga, o'ziga xos qo'shimcha belgilariga qarab xillarga bo'linadi. Musiqa cholg'u asboblaria., asosan, torli (xordofonlar), puflab chalinadigan (aerofonlar), teri qoplamali (membranofonlar), tilchali (gemidiofonlar), plastinkali, elektr va elektron musiqa chol-g'ulari, idiofonlar guruhlariga bo'linadi. Torli cholg'u asboblarning gurux.chalari: kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, o'zbek so-zlaridan g'ijjak, ko'biz, sato va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, domra, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, do'mbira va boshqalar), urib chalinadigan torli sozlar (chang , simbali va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal), klavishli chertib



Turg'un Alimatov

Dutor tut, o'rik, yog'oq yog'ochlaridan yasaladi. Dutorning qorni o'nga yaqin yupqa taxtakachni egib, bir-biriga yopishtirilib yasaladi. Buning ustidan qopqoq yopiladi va tayyor bo'lgan qorin dastaga ulanadi.

Torgir yoki tor ilgak datorning ikki simini ko'tarib turadi. Dutorning dastasi ingichka uzun bo'ladi. Boshqa torli asboblarda odatda metal pardalar bo'lsa, dutorda dastasiga o'ralgan 15 ga yaqin ipak parda bo'ladi. Zamonaviy dutorlarning pardalari ba'zan yog'och yoki suyakdan yasaladi.

Dutor dastasi suyak, sadaf bilan bezaladi. Dutor torlari avvaliga ichakdan, keyin ipakdan tayyorlanar edi. Zamonaviy dator torlari neylondan qilinadi.

Dutorda bir yarim oktava atrofidagi diatonik-xromatik gamma bor.

Dutori turli zarb bilan chalish mumkin. Yakka zarb, qo'sh zarb, piripirak, rez kabi zarblar bilan chalinadi.

Dutor uchun xalq orasida maxsus kuylar yaratilgan. Bular safiga „To'rg'ay“, „Farg'onacha“, „Tanovar“, „Munojot“, „Rohat“, „Jigarpora“, „Dilxiroj“, „Chertmak“, „Shafoat“, „Suvora“, „Qo'shtor“ kuylarini kiritish mumkin.

Dutor (fors— ikki tor) — I) torli chertma milliy musiqa cholg'usi. O'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek Dutori muloyim, nafis va shi-rali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. U asosan tut, o'rik yog'ochlaridan yasaladi. Cholg'uning kosaxonasi (rezonatori) 8—12 ta yupqa, bir-biriga yonmayon yopishtirilgan taxtacha (qovurg'a)dan ishlanadi. Kosaxonaning ustki, ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo'g'iz orqali dastaga ulanadi. Dutorning uzun va ingichka dastasiga 13—17 ta parda bog'lanadi. Kosaxona va dastaga suyak va sadafdan ishlangan bezak naqshlar o'yib yopishtiriladi. Torlari ipak iplaridan eshiladi. Ular Tanavor sozi (kvarta), Munojot sozi (kvinta), Qo'shtor sozi (unison)ga sozlanadi. Uyg'urlarda Dutor kattaroq shaklda, Turkmanistonda fakat o'yma (qazma) turi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda kosaxonasi qovurg'alik Dutorlar bilan birga hajmi kichik, o'yma xillari ham uchraydi. Dutor yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sozi bo'lib, sozandadan katta ijro mahoratini

talab etadi. Dutorda yakka zarb, qo'shzarb, bilak zarb, bidratma, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud. Dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayniy „Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari“ nomli risolasi (16-bobi)da uchratamiz. 16—17-asrlarda „Dutoriy“ ta xallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, mashhadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Hozirda milliy Dutor ijrochiligining o'ziga xos uslublari 4 ta asosiy (Andijon, Toshkent, Samarqand va Xorazm) maktablari orqali namoyon bo'ladi. 20-asrda Andijon maktabi namoyandalardan Dorip dutorchisi, M. Najmiddinov, O. Rustamov, K. Jabborov, Farg'onada Qo'zixon Madrahimov ijrosida „Nolish“, „Cho'pon“, „Andijon Kurdi“, „Andijon Sayqali“, „Tuya bo'zloq“, „Qo'shtor“; Toshkent maktabi yirik vakillaridan Solixon Hoji, A. Vahobov, F. Sodiqov, M. Yunusov, T. Alimatov, 3. Obidov, S. Yo'ldoshevlar talqinida „Sharob 1, 2“, „Shafolat 1, 2, 3“, „Toshkent Sayqali“, „Toshkent Kurdi“, „Rajabiy 1, 2“, „Kurash“, „Dutor Bayoti“, „Dutor Navosi“; Samarqand maktabi ustozlaridan Hoji Abdulaziz, Qori Siroj Yusupovlar ijrosida „Guluzorim“, „Bebokcha“, „Bozurgoniy“, „Gullar vodiysi“; Xorazm maktabi vakillaridan N. Boltayev, Yu. Jabborovlar ijrosida „Koradali“, „Aliqambar“, „Saqili Navo“ singari mumtoz kuylarda o'z ifodasini topgan. 1970- yillardan yakka Dutorda Shashmaqom cholg'u va ashula yo'llari ham ijro etila boshlandi. O'zbek bastakorlaridan N. Hasanov „Gilos“, F. Sodiqov „Dutorim“, S. Yo'ldoshev „Dil kuylasin“, 3. Obidov „Tog' go'zali“, O. Qosimov „Yangra sozim“ kabi asarlarni Dutor uchun yaratganlar; 2) dutor-alt — an'anaviy D.ni 1930- yillarda qayta ishlash natijasida paydo bo'lgan turi. Torlari kapron (yoki boshqa polimer iplari)dan ishlanadi. Dastasiga xromatik tartibda joylashgan yog'och yoki suyak pardalari yelimlab yopishtiriladi. Repertuaridan asosan o'zbek kompo-zitorlari tomonidan qayta ishlangan (garmonizatsiyalashgan) xalq kuylari, fortepiano jo'rligida ijro etilayotgan asarlar o'rin olgan. Mazkur Dutor asosida (O'zbek

xalq cholg'ulari orkestriga moslab) turli hajmdagi Dutor xillari (Dutor— bas, Dutor— kontrabas) ishlandi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Chang —ko‘p torli tirnama cholg‘u asbobi. O‘zbekistonda ishlatiladigan zamonaviy chang turi trapetsiya shaklidir. Chang tayloqchalar bilan urib chalinadi. Ko‘pchilik xalqlarda chang turlicha nomlanadi. Bu changlar orasida muayyan farqlar ham bor.

Changdan qadimda va O‘rta asr Sharq (Ossuriya, Misr, Shimomliy Hindiston, Eron, Markaziy Osiyo) madaniyatida qo‘llanilgan. Hozirgi O‘zbekiston va Tojikiston hududida qadimgi changdan taxminan 17-asrgacha qo‘llanilgan. O‘rta asrlarda Noqus Changiy, Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Xoja Bobo Changiy, Hofiz Changiy, Darvishali Changiy va boshqa chang ijrochilari tanilgan. Chang burchakli yoki yoysimon shaklda bo‘lib, unga 13 va undan ortiq torlar o‘rnatilgan.

Hozirda changdan o‘zbek, tojik, uyg‘ur xalqlari keng foydalanadi. O‘zbekistonda keng ishlatiladigan hozirgi turi trapetsiya shakldagi tovushxonaga ega. Tovushqator asosini 14 sim tashkil etadi. Shu simlarning 13 tasi uchtadan bo‘lib, bitta eng yo‘g‘on sim yakkadir. Shu asnodan torlaning umumiy soni 40 taga yetadi. Sim torlari 2 xarak vositasida 2 guruhga bo‘linadi: o‘ng xarak ustidan o‘tkazilgan simlar past registrda, chap xarak ustidan o‘tkazilganlari 1 va 1,5 oktava yuqori registrlarda ovoz chiqaradi. Changning diapazoni kattadir: katta oktava „lya-bemol“ dan ikkinchi oktava "mi-bemol" gacha yetadi.

Chang bambukdan ishlangan ikki cho‘p yordamida urib chalinadi. 1930-yillarda yangi (xromatik tovushqatorga ega) turlari yaratildi (prima, tenor, bas). Jarangdor tembr, keng dinamik va texnik imkoniyatlari tufayli turli ansambllar, xalq cholg‘ulari orkestri tarkibida hamda yakkanavoz cholg‘u sifatida keng tarqalgan.

O‘zbekistonda chang ijrochilaridan Matyusuf va Fozil Xarratovlar, Ro‘zimatxon Isaboyev, Faxriddin Sodiqov, Baxtiyor Aliyev, Tilash Xo‘jamberdiyev, Temur Mahmudov, Ahmad Odilov, O‘zbekistonda xizmat

ko'rsatgan artistlar T. Otaboyev, F. Shukurova, T. Sobirov va boshqalar tanilgan.

Ko'pchilik xalqlarda chang turlicha nomlanadi. Bu changlar orasida muayyan farqlar ham bor. Fors mamlakatlarida tarqalgan turi *santur* deb nomlanadi. Changning *chang-tenor*, *chang-bas* turlari ham yatarilgan. Turli mamlakatlarda uchraydigan changsimon asobolar quyidagilardir:

- Avstriya- Hackbrett
- Belarus — Tsimbali
- Belgiya- Hakkebord
- Braziliya — Saltério
- Cambodia — Khim
- Xitoy — 扬琴 (Yangqin)
- Xorvatiya — Cimbale
- Chexiya — Cimbal
- Daniya — Hakkebræt
- Fransiya — Tympanon
- Germaniya — Hackbrett
- Gretsiya — santouri
- Vengriya — Cimbalom
- Hindiston — Santoor
- Eron — Santur
- Iroq — Iraq Santuri
- Irlandiya — Tiompan

- Italiya — Salterio
- Janubiy Koreya — Yanggeum 양금
- Laos — Khim
- Latviya — Cymbala
- Litva — Cimbalai
- Meksika — Salterio
- Mongoliya — Joochin
- Niderlandlar — Hakkebord
- Norvegiya — Hakkebrett
- Polsha — Cymbały
- Portugaliya — Saltério
- Ruminiya — Tambal
- Rossiya — Tsimbali, Dulşimer
- Serbia — Tsimbal
- Slovakia — Cimbal
- Slovenia — Cimbale, oprekelj
- Ispaniya — Salterio, dulcémele
- Shvetsiya — Hackbräde, hammarharpa
- Shveytsariya — Hackbrett
- Tailand — Khim
- Tatariston — Çimbal
- Turkiya — Santur
- Ukraina — Tsimbali

- Buyuk Britaniya — Hammered dulcimer
- AQSh — Hammered Dulcimer
- Vietnam — Đàn tam thập lục
- Isroil — Tsimbl

CHANG MUSIQA CHOLG‘USI



Rustam Negmatov

QONUN MUSIQA CHOLG‘USI

Qonun — O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan torlitirnama cholg‘u. Uning asosi qanotsimon, yassi quti shaklida bo‘lib, yog‘ochdan ishlanadi. Mazkur qismining ustiga yog‘ochdan yo‘nilgan qopqoq qoplanadi. Qopqoq ustiga torlarni ko‘tarib turuvchi ko‘targichlar o‘rnatiladi. Qonunning umumiy uz. 800–900 mm, eni 380–400 mm atrofida, torlar soni 72 dona (har bir tovush uchta tordan iborat) bo‘lib, ichak, hozirda kapron va metalldan ishlanadi. Tovushqatori temperatsiya qilingan, umumiy diapazoni 3 oktavadan oshadi. Qonun tizzaga qo‘yilgan holda, ko‘rsatkich barmoqlarga kiydirilgan maxsus moslamalar yordamida tirnab chalinadi. O‘rta asrlarda Darvish Ahmad Qonuniy (15-asr), Ja‘fariy

Samarqandiy (15-asr), Amir Ali Akbariy Samarqandiy (16-asr) kabi mashhur qonunchilar o‘tgan. Q. O‘zbekistonda 1930 yillargacha ishlatilgan, 1980 yil sozanda (changchi va Q.chi) Abdurahmon Xoltojiyev tomonidan qayta ijodiy amaliyotga kiritilgan. Hozirda Q. ijrochiligida A.Asqarov, R.Haydarova kabi sozanda-o‘qituvchilar tanilgan.

Hozirgi kunda O‘rta va Oliy musiqa dargohlarida qonun sinflari faoliyat ko‘rsatib, uning ijrosi o‘rganilmoqda. Qonunda 24 – 25 ta uch qator ichakdan tayyorlangan torlar tortilib, uning fosilasi “sol” kichik oktavadan “si” ikkinchi oktavagacha. Qonun sozandaning ikkala ko‘rsatkich barmog‘iga moslab tayyorlangan aylana mis va shoxdan tayyorlangan mizrob vositasida ijro etiladi.

Qonunning tovush qatori.





Abdurahmon Xoltojiyev

NAY MUSIQA CHOLG'USI

Nay — puflab chalinadigan musiqa asbobi. Sharq mamlakatlarida, xususan O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Nayning ikki xili bor: bo'y-lamasiga ushlab chalinadigan nay (cho'pon nay) va yon-lamasiga ushlab chalinadigan nay. Yon-lamasiga ushlab chalinadigan naylar turi yetakchi hisoblanadi. Nayning eng qadimiy turi cho'pon naydir.

Nay yog'ochdan, misdan yasaladi. Nayning uzunligi 45-52 sm, diametri 20-30 mm bo'ladi. Turkiyada tarqalgan nay o'zbek nayidan kattaroq bo'ladi. Nay kanalining bir uchu bekilgan bo'ladi. O'sha yopiq tomonga yaqin joyida puflash uchun teshik bo'ladi. Bu teshikning pastrog'ida qo'l bilan berkitib-ochiladigan 6

ta teshik bo‘ladi. Shu teshiklarni barmoqlar bilan chala yoki to‘la bosib va puflash kuchini o‘zgartirib 2,5 oktava diapazondagi tovushqator hosil qilish mumkin. Barmoq bilan berkitiladigan teshiklarning qarama-qarshi tomonida tovushlar muvozanatini saqlashga yordam beradigan 2 yoki 3 ta teshik ham bo‘ladi.

An’anaviy o‘zbek va tojik cholg‘u ansambllari tarkibida nay yetakchi sozlardandir. Kuy boshlanadigan pardaga bog‘liq holda nayga moslab boshqa asboblardan sozlangan. Shuning uchun naydagi barmoqchalg‘ich teshikchalar berkitilish soniga qarab milliy sozandalar orasida „besh qo‘l“, „to‘rt qo‘l“, „uch qo‘l“ deb nomlanuvchi sozlash turlari qo‘llangan.

Hozirda nay asbobining o‘rni yakkanaovoz va jo‘rnavor soz sifatida yanada kengaydi, undan xalq cholg‘u ansambllari va orkestrlarida foydalanishning yangicha usullari yuzaga keldi.

FOR AUTHOR USE ONLY



QO'SHNAY MUSIQA CHOLG'USI

Qo'shnay - o'zbek, tojik va boshqa Sharq xalqlarida tarqalgan puflama tilchali musiqa cholg'usi. Bir-biriga o'zaro bog'langan ikkita bir xil g'arov qamishdan ishlanadi. Naychalarning uzunligi 250- 300 mm, diametri 14- 16 mm atrofida bo'ladi. Puflash uchun uchining to'siq qismida tilcha ochiladi. Tilchalarning tebranayotgan qismlarini qisqartirish va uzaytirish uchun ipdan halqasi va uning pastida 7- 8 barmoq teshikchasi mavjud. Diapazoni 1,5- 2 oktavaga yetadi. Kuchli, yoqimli tovushga ega. Hozirda an'anaviy cholg'u ijrochiligida asosan Farg'ona - Toshkent va Xorazm vohalarida, shuningdek, xalq cholg'ulari orkestri tarkibida qo'llaniladi.



Qo'shnay musiqa cholg'usi

SURNAY MUSIQA CHOLG'USI

Surnay (fors. sur — to'y, bayram va nay; to'yda chalinadigan nay) — puflab chalinadigan cholg'u asbobi. O'zbek, tojik, turk, Kavkaz, Eron xalqlari orasida keng tarqalgan. Shakli naynikiga o'xshaydi. Surnayning yuqori tomoni ingichka, pastki tomoni esa konussimondir. O'zbekistonda tarqalgan surnaylarning uzunligi 45-55 smdir. O'zbekiston va Tojikistonda surnay karnay, nog'ora, va doira bilan an'anaviy maxsus ansambllarda keng qo'llaniladi. Surnayning Xitoyda ishlatiladigan turi sona, Kavkazorti xalqlarida ishlatilgan turi zurna deb ataladi.

Nayning asosiy tanasi 400—550 mm uzunlikdagi mevali daraxt (o'rik, tut, yong'oq) yog'ochidan, ichki tomoni silindr, ba'zida konus shaklida, karnaychasi kengaytirilgan holda yasaladi. Barmoq bilan bosiladigan 8 ta teshigi bor: 7 tasi yuza (ustki), 1 tasi orqa (pastki) tomonida joylashgan. Surnayning

tilchasi (naypachoq, dudik) oddiy qamishdan pachoqlanib ip bilan qattiq bo'g'ilib, bir-biriga qapishtirib yasaladi va mil(nil)iga kiygiziladi.

Mil cholg'u tanasiga o'rnatilgan bachka (fors. bacha — bola so'zidan) surnayning tanasiga nisbatan boshqacha yog'ochdan ishlangan silindrga kiygiziladi. Milga esa ijrochi labiga tiralib, uning nafasini tashqariga chiqishidan muhofazalab turadigan ellips shaklidagi (hayvon shoxi, suyak, sadaf yoki metallardan ishlangan) halqa — sadaf o'rnatiladi.

Nayning diapazoni birinchi oktava „re“ dan ikkinchi oktava „si“ gacha va undan ham yuqori bo'ladi.

Surnayning tovushi jarangdor, kuchli va juda o'tkir. Farg'ona, Andijon, Toshkentda surnayning menzurasi (ichki teshigi diametri) kengroq bo'lganligi sababli tovushi mayinroq va nolali, Xorazm surnayi tovushi keskin va chiyildoq. Surnayda tovush hosil qilish murakkab bo'lib, sozandaning uzluksiz nafas olish jarayoniga asoslanadi. Mazkur ijro turi O'zbekistonda „qaytarma nafas“ (Xorazmda „dam aylantirish“) deyiladi. Bunda ijrochi lunjini shishirgan holda zaxira havoni og'zida saqlaydi va burundan nafas olayotgan paytida zaxiradagi xavoni chakka mushaklari yordamida surnay naychasiga yo'llaydi. Natijada surnayga havo yuborilishida tovush uzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekistonda surnay ijrochiligida, asosan, ikki (Farg'ona-Toshkent va Xorazm) yo'nalishi mashhur bo'lib, bir necha mahalliy markazlar mavjud bo'lgan; Andijon (Buloqboshi)dan Hojimat mehtar, Rustam mehtar Yusufalozoda, Ashurali mehtar, Odilbek Rustamov va boshqalar, Farg'onadan Otajon surnaychi, Qo'qondan Hamroqul surnaychi, Ahmadjon Qo'shnay va boshqalar, Toshkentdan Ubaydullayevlar, Mirzayevlar, Sobirovlar sulolalari va boshqalar, Xivadan Sariq mehtar, Bobojon surnaychi, Xudoybergan Qurbon, keyingi paytda Y. Tojiyev, M. Matyoqubov va boshqalar tanilgan.

Surnay karnay, nog'ora yoki doyra jo'rligida ommaviylashgan maxsus ansamblni tashkil qilib, milliy an'anaviy tomoshalarda, („Surnay yor-yori“), dorboz, qo'g'irchoqboz o'yinlarida („Duchava“, „Dor o'yin“, „Ufarlar“, Xorazmda „Qum pishig'i“, „To'rg'ay“, „Zuvoniy“, „Rotollo“ va boshqalar), turli marosim, yig'in va sayillarda, raqslarda („Shodiyona“, „Katta o'yin“, „Dilxiroj“, „Tanavor“, „Munojot“, Xorazmda „Orazibon“, „Norimnorim“, „Yelpasalandi“ va, ayniqsa, „Surnay lazgisi“) keng qo'llaniladi. Surnay yakkanavoz cholg'u sifatida ham mashhur. Ijro imkoniyatlarining boyligi va o'ziga xos xususiyatlarga egaligi tufayli unda chalinadigan kuylar alohida ajralib turadi. Shashmaqomdagi Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari sho'balari asosida yaratilgan surnay yo'llari „Surnay Buzrugi“, „Surnay Navosi“, „Surnay Orazi“, „Surnay Dugohi“ (savt va ufari bilan) g'oyat sevimlidir. „Mushkiloti Segoh va Ufari“, „Surnay Irog'i“ kabi kuylarning ko'pchiligi yirik turkumli asarlardir. Ayniqsa, Navo maqomining surnay yo'llari keng tarqalgan bo'lib, asosan, nikoh to'ylarida ijro etiladi. Xorazmda surnay uchun maxsus surnay maqomlari mavjud bo'lib, ular Tanbur chizig'ida o'z aksini topgan („Muhammasi Rost“, Navo maqomidan „Peshrav zanjiri“, „Ufari Navo“ va boshqalar), lily yerda, shuningdek, maqom yo'llari negizida yaratilgan mumtoz kuylari ham mashhur („Nadramaddin“, „Birollayim“ va boshqalar). Surnay hozirda an'anaviy va ba'zi milliy estrada ansambllari, xalq cholg'u asboblari orkestrlarida ishlatilmoqda. O'zbekiston kompozitorlaridan Aleksey Kozlovskiy („Lola“ suitasi), Sayfi Jalil (1 simfoniyasi), M. Tojiyev (4 va boshqa simfoniyalari) va boshqalar surnayning o'ziga xos tembrini simfonik orkestri vositalari yordamida yetuk badiiy mavqeda ifoda etganlar. Surnayga yaqin sozlar Kavkaz (ozarbayjon, arman va boshqa) xalqlari va turklarda zurna, Xitoyda sona, Hindistonda shexnay deb ataladi.

Karnay surnay, nog'ora, doiralarga hamohang bo'ladi. Karnayning to'g'ri va tirsakli (to'g'ri burchak ostida ikki marta bukilgan) turlari qadimdan O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, Urta Osiyoda tarqalgan. O'tmishda harbiy musiqa cholg'usi sifatida harbiy yurish xabarchisi, jang maydonida g'alaba jarchisi bo'lgan. Hozirda bayram, to'y va boshqa tantanalarda chalinadi. Oxirgi paytda Karnay zamonaviy milliy estrada ansambl (mas, "Abbos" guruhi)lar tarkibiga ham kiritilmoqda.



Karnay musiqa cholg'usi.

G'IJJAK MUSIQA CHOLG'USI

G'ijjak - torli kamonli musiqa asbobi. O'zbek, tojik, turkman, uyg'urlarda va *kamon*, *kemancha* nom bilan Kavkazorti mamlakatlarida keng tarqalgan. O'zbek cholg'u asboblari orkestrida g'ijjakchilar guruhi xuddi simfonik orkestrdagi kamonli sozlar guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas) kabi yetakchilik qiladi.

Oʻrta asr musiqa risolalarida bayon etilgan rivoyatlarga koʻra gʻijjakni (*gʻipchak* nomi bilann) Forobiy yaratgan, Ibn Sino dastlabki 2 torini kvartaga soxtagan, Qulmuhammad Udiy esa Gʻijjakka 3-torni qoʻshgan. Ungacha 2 simli gʻijjakda ipakdan eshilgan yoki simli aks-sado beruvchi torlar soni 8-11 tagacha boʻlgan.

Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida aytilishicha, gʻijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart boʻlgan. Oʻrta asrda Alijon Gʻijjakiy, Xoʻja Oʻzbek Gʻijjakiy kabi sanʼatkorlar mashhur boʻlgan.

Gʻijjakning kosaxonasi ustidagi teri sovuq, nam sharoitida choʻkib ketishi, ingichka simlarining ovozi noqisligi tufayli Oʻzbekiston (ayniqsa Andijon)da 19-asr oxiridan gʻijjak oʻrniga anʼanaviy ansambllar tarkibida skripka ishlatila boshladi. Ammo keyinchalik asbob mukammalashtirildi va undan yana keng qoʻllanila boshlandi. 1940-yillarda gʻijjakning oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrida ishlatiladigan alt, bas va kontrabas turlari yaratilgan. Mazkur orkestrlar tarkibida Gʻijjakchilar guruhi xuddi simfonik orkestrdagi kamonli sozlar guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas) kabi yetakchilik qiladi. Hozir xalq cholgʻu orkestrida Gʻijjak-bas oʻrniga qoʻbiz-bas (yoki violonchel), Gʻijjak-kontrabas oʻrnigab kontrabasning oʻzi ishlatiladi.

Gʻijjakning inson ovozigacha yaqin, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boy, xonaqoiy ijro uslubi tufayli milliy mumtoz musiqa ansambllarida asosiy oʻrin tutadi.

Gʻijjakning yumaloq choʻmichsimon kosasi oldin qovoq, kokos yongʻogʻidan, hozirda yogʻoch (tut, yongʻoq) gʻoʻlchasidan oʻyib yasaladi va kosasi ogʻziga teri yoki pufak tortiladi. Pardasiz dastasining bir uchiga quloqlar oʻrnatiladi, bir uchi esa kosaxona ustiga joylashadi. Dasta bilan kosaxonaning umumiy uzunligi 550-900 mm atrofida.

Hozirda gʻijjakning torlar soni 3-4 boʻlib, kvarta-kvintaga sozlanadi. Ular dastaning yuqori qismida joylashgan shayton xarak va kosaxona ustidagi xarakka yotqiziladi. Umumiy diapazoni 4 oktavadan ortiq.

O'zbekistonda g'ijjak ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'lgan. Farg'ona vodiysi hofizlik san'ati hamda surnay ijrochilik an'analari ta'sirida shakllangan *Andijon maktabi* (T. Jalilov, G'. Hojikulov, E. Ro'ziboyev, Yu. Yusupov va boshqalar) mayda urg'u (aksent)lar, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo'llari, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi. Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, M. Niyozov, M. Muhammedov ijrosida „Surnay Irog'i“, „O'yin Munojoti“, „Dugohi Husayniy“ hamda „Kezarman“ (G'. Toshmatov), „Gul mavsumi“ (rov) kabi g'ijjak kuylari mashhur.

Mahalliy musiqa an'analari (ayniqsa, Shashmaqom yo'llari) negizida qaror topgan *Buxoro maktabiga* g'ijjak ning xuddi titrayotgan kamonni yurg'izib sadolanishi, har bir pardani o'zida to'lqinlatib (tebranish) tezlashishi xos. Buxoro g'ijjakchilik maktabi namoyandaligidan Haydarqul Qorovulbegi (Buxoro amirlari saroylarida xizmat qilgan), 20-asrda Aminjon Ismatov, Samo Vohidov, Hikmat Ne'matov, O'lmas Rasulovlar ijrosida „Surnay Irog'i“, „Bahri tavil“, „Kamon ufari“, „Zulayho“, „Noz“ (O'. Rasulov) kabi namunalari ommalashgan.

Xorazm maktabi ijro uslubi shiddat, kamonni urg'u bilan tortish, ayni paytda yumshoq to'lqinlatish bilan ajralib turadi. Mazkur maktab vakillaridan Patak-g'ijjakchi (mashhur Suyav-baxshi dastasida faoliyat ko'rsatgan, 19-asr), Abdulla Mijana, Matyoqub Xarratov, Ollanazar Hasanov, Hasanboy Atayevlar talqinida Xorazm maqomlashning cholg'u yo'llari, surnay yo'llari, shuningdek, „Aliqambar“, „Qalabandi“, „Xarrotiy“ (M. Xarratov), „Gech polvon“ singari kuylar mashhur.

G'ijjak yakkanavoz cholg'u, ayni paytda jo'rnavoz soz sifatida ham keng qo'llanilmoqda. Turkman, qoraqalpoq, xorazm baxshilari (masalan, R. Murodov), Andijonda T. Jalilov, G'. Hojikulov, S. To'xtasinovlar o'ziga xos jo'rnavozlik yo'llarini yaratishgan, 1970-yillardan boshlab g'ijjakni yakkanavoz


va milliy cholgʻu ansambli tarkibida alohida koʻrsatish, unda oʻziga xos kuy tuzilmalarini badiha tarzida chalish usullari Abduhoshim Ismoilov, A. Dadayev va boshqa ijrosida ommalashgan. Zamonaviy texnika vositalari (masalan, qisqa choʻzimli tovushlarni ishlatish yoʻllari) keng kirib kelib, polifoniya va polimonodiya xususiyatlaridan foydalanilmoqda.

Sozlanishi.



Tovushqatori.





Abduhoshim Ismoilov.



Ilhom To'raev

QASHQAR RUBOBI

Qashqar rubob i ninguz. 80—100 sm, cho'michsimon kosasi tut va b. qattiq daraxt g'o'lachalaridan o'yib yasaladi va ustiga teri krplanadi. Dastasi uzun, uchi orqasiga qayrilgan bo'lib, kosadan boshlanadigan joyida qo'chqor shoxiga o'xshash 2 ta gajagi mavjud. Dastasidagi pardalari (19 tadan 23 tagacha, oldin ichakdan, hozir metalldan qilinadi) xromatik tovushqatorni tashkil qiladi. Qashqar Rubob ining 5 ta tori, odatda, kvartakvinta oralig'ida sozlanadi. Diapazoni 3 oktavaga yaqin. Tovushi jarangdor. Ijrochilikni o'zlashtirish birmuncha yengilligi, mohir Rubob chi — sozandalar (M. Mirzayev va b.)ning yetishib chiqishi bu sozning 1940y. lardan O'zbekiston va Tojikistonda havaskor va professional sozandalar orasida ommaviylashuviga sabab bo'lgan. Qashqar Rubob ining qayta ishlangan zamonaviy turi Rubob prima o'z imkoniyatlari bilan rus domrasiga yaqin, 4 metall tori kvinta oralig'ida sozlanadi. Orkestrda va yakka soz sifatida ishlatiladi.

O‘zbek bastakorlaridan M. Mirzayev, sozandalaridan A. Boboxonov, N. Qulabdullayev, kompozitorlardan I. Xamroyev, M. Bafoyev va b. qashqar Rubobi uchun turli janrlarda asarlar yaratishgan.

Rubob ijrochilik maktabini yaratgan ustozlar, buyuk sozandalar, bastakorlar, O‘zbekiston Xalq artisti Muhammadjon Mirzoyev va farzandlari maqomasarlarning yetuk bilimdoni O‘zbekistonda Xizmat ko‘rsatgan artist Shavkat Mirzayev.



QASHQAR RUBOBI SOZLANISHI

Sozlanishi.



Tovushqatori.



AFG'ON RUBOBI

Afg'on rubobining dastasi kalta (8—10 sm), uchi bir oz qayrilgan. Rezonatori nihoyatda katta (kengligi 20 sm gacha, chuq. 30 sm gacha, umumiy uz. 80 sm gacha). Korpusi bilan dastasi bir butun yog'och bo'lagidan o'yib ishlanadi. Korpusining o'rta qismining 2 yoni o'yilgan. Pastki qismi teri b-n, yuqrrisi taxtacha b-n krplanadi. Dastasiga, odatda, 4—5 ta asosiy parda, taxta qoplamasiga 6—7 ta qo'shimcha xas pardalar o'rnatiladi. Kvartaga sozlanadigan 5 ta asosiy tordan tashqari, yon quloqlarga tortilgan 10—11 yordamchi (aks sado beruvchi) torlari bor. 2 oktava diapazonidagi diatonik tovushkatoriga ega. Asosan, professional sozandalar tomonidan yakka soz sifatida va turli ansambllar tarkibida qo'llaniladi. Pomir rubobining kosasi qashqar Rubob idan bir oz kattaroq, dastasi kaltaroq va yo'gonroq bo'lib, unga pardalar bog'lanmaydi. Dastasi kosasi bilan bir butun yog'och bo'lagidan yo'niladi. Kosasining pastki qismi yupqa taxtacha bilan berkitiladi. Kvartakvinta oralig'ida sozlanadigan 5 ta asosiy torlaridan tashkari yon quloqqa

bogʻlanadigan tori boʻladi. U baland sozlanib, maʼlum tasviriy vosita sifatida foydalaniladi.



Sozlanishi.



Tovushqatori.



DOIRA CHOLGʻUSI

Doira (*childirma, chirmanda, doyra, daff, dapp*) — oʻzbek, tojik, uygʻur va boshqa sharq xalqlarining cholgʻu asbobi. Doira zarb bilan urib chalinadi. Gardishi oʻrik, yongʻoq yogʻochidan yasaladi. Gardishi ustidan tashqari tomondan teri bilan qoplanadi. Gardishning ich tomoniga tamburinnikiga oʻxshash xalqachalar osiladi.

Doira qadimiy musiqa cholgʻularidan hisoblanadi. Markaziy Osiyo (Niso shahri, eramizdan avvalgi 2-asr)da topilgan terrakota yodgorliklarida doirachi ayollar tasvirlangan. Doira va unga yaqin urma musiqa cholgʻulari tojik, arman, ozar, uygʻurlarda *dap, dapp, daff, def* deb nomlanadi.

20-asrda oʻzbek doira ijrochilik anʼanalarini Usta Olim Komilov, T. Inogʻomov, D. Sottixoʻjayev, Rahim Isoxoʻjayev, F. Azimov, Qahramon Dadayev, O. Kamolxoʻjayev, aka-uka Islomovlar, M. Oripov, R. Otaboyev, T. Sayfiddinov, R. Samadov va boshqalar mukammallashtirgan.

Doiraning asosiy qismi (gardishi) tok zangi, soʻnggi yillarda zarang, akatsiya, loʻlilarda tol daraxtlaridan ishlanadi. Gardishning tashqi tomoniga buzoq, toy yoki echkining oshlangan terisi qoplanadi. Ichki tomoniga esa tamburinnikiga oʻxshash maʼdandan ishlangan halqachalar osiladi. Doiraning halqasiz turlari ham mavjud.

Gardish diametri 400—510 mm ni tashkil etadi. Doirada tovush ikki qoʻl barmoqlari yordamida hosil qilinadi. Undan yakka ijroda hamda turli xil milliy cholgʻu ansambllarida joʻrnavor cholgʻu sifatida foydalaniladi.

Doirani chalishda qoʻllaniladigan ritm birliklari (naqralar) haqida qadimiy manbalarda yozilgan. Doira usuli odatda ikki xil zarbdan iborat. Biri — *bak* (baka, bako, bakka, bakko). Bak doira gardishiga yaqin joyga urilganda chiqadigan tovushdir. Ikkinchi zarb — *bum*. Bumni chalish uchun barmoqlarni choʻzib doiraning oʻrtaroq qismiga uriladi.



Xalil Muhammadiyev.



Doira va tablak musiqa cholg'ulari.

Tabla (arab, tabl — urma cholg'u) — hind urma musiqa cholg'usi. Ikkita — odatda kattaroq (past tovushli) dayyan hamda kichikroq (yuqori tovushli) bayyan deb ataluvchi nog'orachalardan iborat. Yog'och, sopol yoki misdan ishlangan kosaxonalari 2 qatlamli teri bilan qoplanadi. Ijrodan avval bular terisi ustiga un, temir qirindisi va yelim aralashmasidan tayyorlangan maxsus kukun

suriladi. Ijrochi Tablani qo'l barmoklari va kaftlar bilan urib, turli usullar chaladi. Tabla yakkanavoz hamda turli mumtoz musiqa (jumladan, raga) ansambllarida asosiy jo'rnavoz cholg'u sifatida keng qo'llaniladi.



2.2. Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni o'quvchi yoshlarning musiqa madaniyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati

Respublikamizning madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy – axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd qilganidek, bu negizlar: milliy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy merosni qadrlash va rivojlantirish, insonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish vatanparvarlikdan iboratdir. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligi respublikamiz hududida asrlar osha yashab ijod etib kelayotgan barcha fuqarolarning ma'naviy madaniyatlarini shakllantirishga erishishdan iborat maqsadlar yotadi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar –O'zbekistonning o'z mustaqilligini e'lon qilishi, tarixiy xotira, an'ana va qadriyatlarning tiklanishi munosabati bilan ijtimoiy fanlar, jumladan, musiqiy fanlar oldida yangi vazifalar paydo bo'ladi. Mafkura sohasida, go'zallik qonun – qoidalarini tushunish va tushuntirish sohasida izlanishlar davom etmoqda.

Mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shadigan, kelajagimiz poydevori – yoshlarni har jihatdan komil inson, ma'naviy madaniy shakllangan barkamol shaxs qilib tarbiyalashda barcha fanlar qatori musiqa fanining ham o'rni benihoyadir. Bu jihatlarni tarkib toptirish ushun avvalo, ma'naviy madaniyatning asl mohiyatini tushunib yetmog'imiz lozim.

Bugungi kunda “ ma'naviyat” nima ? degan savolga xilma – xil javoblar paydo bo'lmoqda: “Ma'naviyat insonning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning asl insoniy hislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”.

“Ma'naviyat – madaniyat mazmunidan umuminsoniy qadriyatlarning majmuini va ularning muayyan tarzda o'zaro uyg'unlashtirib xalqning tarixiy

tajribasi va hozirgi zamin taraqqiyoti zaruriyatini anglash darajasida kelib chiqib talqin qilinishi va aks ettirilishidir”.

“Ma’naviyat – millatning asrlar davomida shakllangan, ildizlari uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy –madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog’liq bo’lgan ichki (aqliy) intellektual va sobit hissiy (emosional) dunyosidir”.

Ma’naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, I.A.Karimovning “ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon – irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg’otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman”, – degan fikrlari diqqatga sazavordir.

Ma’naviyat insonning butun umri davomida uning kuchga kuch qo’shishga, aql – idrok va zakovatini kengaytirib, mustahkamlashga hizmat qiladi. Ma’naviyat va ma’naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasini va taraqqiyot manbaidir.

Demak, ma’naviyat ko’p qirrali qadriyatdir. “yer, oila, ota – ona, bolalar, qarindosh – urug’lar, qo’ni – qo’shnilar, xalq, vijdon, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, erkinlik – ma’naviyatning ma’nosi ana shunday keng... Inson o’zini xalqning bir zarrasi deb sezganidagina, u haqda o’ylab, mehnat qilib yashagandagina ma’naviyat bilan tutashadi”.

(I.Karimov. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. – Toshkent, “O’zbekiston”, 1992,72 bet)

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ma’naviyat deganda insonni inson, millatni millat qilib turgan axloqiy fazilatlarining majmuasini nazarda tutadi.

Mustaqillik ayni paytda ma’naviyatning ajralmas qismi bo’lgan milliy til va madaniyatni taraqqiy yetish, milliy o’z – o’zini anglash, milliy his – tuyg’ular, g’ururni, vatanparvarlikni o’stirish va mustahkamlashga ham yo’l ochganini ta’kidlash zarur.

Ammo, shuni ta'kidlash lozimki, lotincha atamani qabul qilgan xalqlarda ham keyingi vaqtlarda bu tushunchaga kengroq mazmun berilib, ma'rifatlik, bilimlik, tarbiya ko'rganlik ma'nolarida qo'llana boshlangan.

Madaniyat insonning faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan ma'naviy qadriyat bo'lib, o'z navbatida shaxsning shakllanishi va kamol topishida muhim omil hisoblangan ijtimoiy hodisadir.

Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq tomonidan yaratiladi. Madaniy ma'naviyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma'naviy qiyofasi shakllanadi, ahloq – odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi.

Ma'naviy madaniyatni o'rganishda, avvalo ma'naviyat va madaniyatning qadimiyligi, o'zaro munosabati hamda inson hayoti, shaxs xulq – atvorining ma'naviy qaror topish bosqichlari hisoblanadi. Uni o'rganishda avvalo, madaniyat eng umumiy tarzda inson va jamiyatning o'zgaruvchanlik faoliyatining barcha turlari hamda faoliyat natijalarining majmui ekanligini unutmazlik lozim.

Muayyan madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u insonlar tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni, ijtimoiy ongning ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy, va boshqa shakllarini, dunyoqarash va tafakkurning barcha shakl va tomonlarini, jamiyatdagi g'oyalar va ta'limotlarni, badiiy asarlar, estetik qarashlarni ham qamrab oladi. Bundan tashqari, ma'lumot berish, ta'lim – tarbiya, falsafa, din, huquq, etika, estetika, san'at va adabiyot singarilar ham manaviy madaniyatga kiradi.

Musiqa qadim zamonlardan boshlab kuchli tarbiya vositasi sifatida ta'lim – tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo'llanilgan. Ko'zga ko'ringan davlat arboblari, olimlar, pedagoglar san'atining barcha turlariga, jumladan musiqa san'atiga ham insonlarning ongi va ruhiyatiga chuqur ta'sir qilib, ularda

yuksak ma'naviy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qarashganlar va bunga katta e'tibor berganlar.

Musiqqa san'atining har bir janri shunday mavzular majmuini o'z ichiga oladiki, unda mamlakatning boshidan kechirgan u yoki bu davri xalqning yoki millatning ma'naviy ruhi hamda madaniyati ifodalanadi.

Musiqqa san'ati mustaqil Respublikamiz fuqarolari ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ijobiy xususiyatlarga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy jozibali musiqqa asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqeya – hodisalarni chuqur mushohada qilishga da'vat etishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Shuning uchun asarlarining kishilarni yuksak ma'naviy – madaniy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta'sir etishdek vositali xususiyatidan imkoni boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Musiqqa sozlarida ijro etilgan asarlarning kuchi uning xalqchil va tushunarligida, kishilar ichki – ruhiy dunyosiga emosional ta'sir ko'rsata olishidadir. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda musiqqa san'atining ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir. Ma'naviy tarbiyada o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan keng foydalanish uning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'la oladi

Milliy dastur yuksak ma'naviy va madaniy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etar ekan, bu borada musiqiy merosimizning o'rni ham ahamiyatlidir.

Kundalik hayotimizda jamiyat madaniyatini vujudga keltirishda uning ma'naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog'lom fikrli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda musiqqa madaniyatining o'rni ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Jumladan o'zbek musiqqa madaniyatining poydevorini vujudga keltirishda mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan kuy va qo'shiqlar kishi qalbini o'ziga

rom qilib, asarlar o'sha xalq uchun ilhom manbai bo'lgan. Inson qalbi go'zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda, go'zallik muhitidan ozuqa oladi.

Musiqa – san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqyea – hodisalarni ifodali ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqyelikdai barcha tomonlarni qamrab ololmagani uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi, musiqa musavvirlik va haykaltaroshlikdan farqli tarzda dunyo haqida tasavvurlar emas, balki tuyg'ular va kayfiyatlar hosil qiladi. Musiqa voqyelikning his – tuyg'uli qiyofasini yaratadi.

Musiqada tuyg'ular hayotiy tuyg'ularning aynan o'zi bo'lmay, ular tanlab olingan, tasodifiy lahzalardan tozalangan, muayyan orzular nuqtai nazaridan anglangan bo'ladi. Musiqa inson hissiyotlari holatiing barcha rango – rang tovlanishlarini aks ettirishga qodir. U eng murakkab tuyg'ular, eng nozik kechinmalar va kayfiyat holatlarini ham ifoda eta oladi. Musiqa vaqt mezoniga amal qilib, kechinmalarning o'zgarib turishlari, avjlanishi va pasayishi jarayonlarini qamrab oladi.

Musiqa murakkab ijtimoiy tuyg'ularni, eng avvalo, hayotdagi nutq ohanglari yoki harakat vazinlari aks etadigan axloqiy (sevgi, nafrat, g'urur, qo'rquv), estetik (san'at yoki tabiat nafosati, ulug'vorlik, fojiali, kulguli) tuyg'ularni ifodalaydi.

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hiech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan hususiyatlarga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqyelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi.

Musiqaning kuch – qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini hususiy

va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir – biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqqa inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviy olamini butanlaycha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladi. U ruhiy tizim hususiyatlarini ifodalash, milliy ruh holatlarini vujudga keltirish imkoniyatiga ham ega.

Buyuk bastakorlar ijodida u yoki bu xalqqa hos bo'lgan ruhiy tizim hususiyatlari, tuyg'u holatlari va voqyelikni in'ikos etish imkoniyatlari beqiyosligi yaqqol ko'rinadi. Milliy ruh hususiyatlarini musiqqa vositalarida aks ettirish jarayonida xalq musiqaviy ijodi katta o'rin tutadi.

Musiqqa madaniyati o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqqa madaniyatining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda talabalar musiqqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek talabalar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqqa san'atiga mexr va ishtiyoqni oshirish, musiqqa san'atiga qiziquvchi talabalarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart – sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqqa ta'lim – tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi.

Musiqqa ta'lim – tarbiyasini rivojlantirish bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Musiqqa madaniyati talabalarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarining

joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, honanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi.

Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlarini yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishtirishda o'ziga hos va takrorlanmas manba bo'lib hizmat qiladi.

San'at inson munosabatlari go'zalligini – fidoiylilik, oliyanoblik, ezgulik, yaxshilik, adolat, jasorat, vatanparvarlik kabi tushuncha shaklidagi holatlarni badiiy ifodalash orqali aks ettiradi.

Ayni mahalda san'at ijtimoiy yovuzliklarni, razillik va munofiqlik, pastkashlik va riyo, tubanlik va yolg'onchilik kabi hunuk hodisalar vositasida ham insonning tuyg'ulariga ta'sir etib uni tarbiyalaydi. San'atda go'zallik, ko'pincha fojia, ulug'vorlik kulgi orqali qaror topadi. Fojiiyaviylik, ulug'vorlik va kulgilik tushunchalari san'atda alohida qimmatga ega. Bizga ma'lumki, u yoki bu musiqa asarini ijro etishda ijrochilar va cholg'uchilardan mohirlik vaustalik talab qilinadi.

Bizga ma'lumki, musiqa janrlari ichida eng murakkab ammo ko'ngilning istalgan burchagiga yetib bora oladigan hususiyatga ega bo'lgan turi bu sozandalik ya'ni xalq cholg'u asboblari chalishdir.

Sozandalik – o'zbek musiqa ijrochiligi san'atining qadimiy turlaridan biri bo'lib, insoniyat hayoti, ma'naviyatimiz ruhiyati va rivojiga beqiyos madad beruvchi omildir. Sozandallik shu boisdan ham uzoq o'tmishdan o'ziga hos an'analar vujudga kelgan. Bu an'analar xalq orasida ardoqlanib, turli ko'rinish, uslub va yo'nalishlarda rivojlanib, avlodlardan avlodlarga o'tib, o'z ma'naviy salohiyatini saqlab kelmoqda. Boshqacha qilib aytganda, sozandalik san'ati – jonli jarayondir.

Musiqa san'atining beqiyos va o'lmas an'analarini o'zlarida mujassam qilib, ularni zamonaga mos tarzda rivojlantirish zabardast va ulkan qalb

egalariga xosdir. Ularning ijodi, ijro yo'llari va talqin uslublari o'rganish, musiqaning cheksiz sir sinoatlaridan voqif bo'lish, madaniy boyligimizni qadrlash bilan birga yosh avlodni ona – Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashda ham keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Sozandalikning eng asosiy muhim tomonlaridan yana biri ko'ngilda ezgu his – tuyg'ularni kamol toptirib, insonni hayotni sevishga, ardoqlashga undashidir. Shu boisdan sozandalar azal – azaldan ma'naviyat kuchlari sifatida e'zozlanib kelingan.

V.A.Suxamlinskiy aytganidek, xalq musiqa merosi bitmas – tunganmas hazina bo'lib, yoshlarni ma'naviy kamolotga yetqazuvchi badiiy – estetik manba hisoblanadi.

Agar bolaning yoshlik chog'idanoq qalbiga musiqa asarining go'zalligi ta'sir ettirilsa, agar bola tovushlarda inson his – tuyg'ularining ko'p qirrali ma'nolarini sezsa, u hech qanday boshqa vositalar bilan erishib bo'lmaydigan madaniyat cho'qqisiga ko'tariladi. Musiqa ohangi go'zallikni his etish bola qarshisida o'z go'zalligini yaratadi, kichik inson o'z obro' – etiborini anglaydi. Musiqa tarbiyasi bu musiqachini tarbiyalash degan gap emas, balki birinchi galda insonni tarbiyalash demakdir, – degan .

Chunki cholg'uda ijro etiladigan har bir kuy ohang o'zining ma'lum bir mazmun mohiyatiga ega bo'lib, u insonga tovush orqali ta'sir etadi va badiiy obraz yaratadi. Kuyning yana bir o'ziga hos hususiyati shundaki, so'z be oqibat qolganda kuy yordamga kelardi va ko'ngilni eng hilvatli joylarini ham zabt etish imkoniyatiga egadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviy madaniy tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari – san'atkorlar, o'qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, vrachlar, artistlar, barcha rahbarlar birdek mas'uldirlar.

Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviy madaniyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin bo'ladi.

2-bob bo'yicha xulosalar

Musiqqa qadim zamonlardan boshlab kuchli tarbiya vositasi sifatida ta'lim – tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo'llanilgan. Ko'zga ko'ringan davlat arboblari, olimlar, pedagoglar san'atining barcha turlariga, jumladan musiqqa san'atiga ham insonlarning ongi va ruhiyatiga chuqur ta'sir qilib, ularda yuksak ma'naviy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qarashganlar va bunga katta e'tibor berganlar.

Musiqqa san'atining har bir janri shunday mavzular majmuini o'z ichiga oladiki, unda mamlakatning boshidan kechirgan u yoki bu davri xalqning yoki millatning ma'naviy ruhi hamda madaniyati ifodalanadi.

Musiqqa san'ati mustaqil Respublikamiz fuqarolari ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ijobiy xususiyatlarga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy jozibali musiqqa asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqeyalar – hodisalarni chuqur mushohada qilishga da'vat etishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Musiqqa sozlarida ijro etilgan asarlarning kuchi uning xalqchil va tushunariligidan, kishilar ichki – ruhiy dunyosiga emosional ta'sir ko'rsata olishidadir. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda musiqqa san'atining ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir. Ma'naviy tarbiyada o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan keng foydalanish uning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'la oladi.

Musiqqa cholg'u asboblari -musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr va boshqalar)

tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir Musiqa cholgʻu asboblaria.ning sadosi oʻziga xos tembr, maʼlum diapazotm tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholgʻu asboblaria. sadosining sifati, koʻpincha, muayyan cholgʻu asbobining shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bogʻliq. Musiqa cholgʻu asboblaria. qadimdan qamish, bambuk, yogʻoch, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yongʻogʻi, qovoq va boshqalardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qoʻshimcha vositalar (mas, surdinayaan foydalanish), ijrochilik uslublari (mas, torli sozlarni tirnab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), baʼzi musika bezaklari yordamida oʻzgartirish mumkin. Paydo boʻlishi insoniyat tarixining ilk davrlariga toʻgʻri keladi; mukammallanishi esa musiqa sanʼati va ijrochilikning rivojlanishi hamda Musiqa cholgʻu asboblaria.ni ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti bilan bogʻliq.

Musiqa cholgʻu asboblaria. baʼzida xalq va professional (orkestr) turlarga ham boʻlinadi. Orkestr cholgʻulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan koʻp ovozli musika asarlari ijrosiga moslashtirilgan. Xalq cholgʻulari esa maʼlum millat (elat) monodik musiqa ijrosi uchun qoʻllaniladi va musiqiy tovush quroli boʻlish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir; mukammal shaklida xalq badiiy tafakkuri, nafasot tasav-vurlari, ramziy maʼnolar aks etgan. Cholgʻular xalq hayotida sof estetik vazifa bajarishdan tashqari shomonbaxshilar, afsungarlar ruhiyatga taʼsir oʻtkazishda, harbiylar, choʻponlar, dehqonlar tomonidan boshqaruvchi, qoʻrqituvchi, chorlovchi tovush quroli sifatida foydalanib kelingan.

III - BOB: Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishning pedagogik shart-sharoitlari

3.1. Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "musiqa madaniyati" fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'quvchi yoshlarni madaniy, ma'naviy, mafkuraviy shakllangan, milliy o'zligi, tili, diniy e'tiqodi, qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini va milliy musiqa merosimizga sodiiq va ularga vorislik qila oladiga komil inson sifatida tarbiyalash kabi keng ko'lamli vazifalar oliy ta'limda ta'lim mazmunini uzluksiz takomillashtirishni talab qiladi. Musiqa o'qituvchilarini kelgusida pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi, ya'ni musiqa san'atining bir paytda bir necha sohalaridan yetuk bilim, malakalarga ega bo'lishi lozimligi ularni kasbiy tayyorlash masuliyatini yanada oshiradi.

Bu o'rinda musiqa darslarining asosiy faoliyati bo'lmish o'zbek xalq cholg'ularida ijro etish faoliyatini tashkil qilish, boshqarish o'qituvchidan cholg'ushunoslik va xorshunoslik asoslari bilan birga "musiqa ilmi" boshqaruvi bo'yicha ham keng ko'lamli bilim va iqtidorga ega bo'lishini talab etadi.

Xalq ta'limi tizimida musiqa madaniyati darslarining o'qitilishi jarayonida maktab o'quvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash yangicha ilmiy, nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. O'rta maktab musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarini cholshg'ularda ijrochilik mahorati, bilim va malakalarini samarali shakllanishi darajasini belgilovchi mezonlar, tadqiqot muammosining ijobiy natijalarga erishishini kafolatlovchi metodlar tavsiya etiladi.


Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "musiqa madaniyati" darslari jarayonida o'quvchilar har bir cholg'u sozlarning tushqatolrlarini tuzilishini hamda ularning sozlanishlarini bilishlari talab etiladi. Quyida ushbu ma'lumot va tavsiyalarni nota tizimi asosida ko'rib chiqamiz.

MUSIQA CHOLG'ULARINING SOZLANISHLARI VA TOVUSHQATORLARI.

PUFLAMA MUSIQA CHOLGULARI.

Nay.  Musical notation for the Nay instrument, showing a scale with a bracketed section of 8 notes.

Surnay.  Musical notation for the Surnay instrument, showing a scale.

Qo`shnay.  Musical notation for the Qo`shnay instrument, showing a scale.

URMA TORLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Chang.  Musical notation for the Chang instrument, showing a scale across two staves.

Qonun.  Musical notation for the Qonun instrument, showing a scale.

Sozlanishi.

Qashqar
rubobi.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

Afq'on
rubobi.



Tovushqatori.




Sozlanishi.

Tor.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

Soz.




Tovushqatori.




CHERTMA TORLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Sozlanishi.

Dutor.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

Dutor
bas.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

Dutor
kontrabas.




Tovushqatori.



Sozlanishi.

Dumbra.




Tovushqatori.




KOMONLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Sozlanishi.

G'ijjak.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

G'ijjak
alt.




Tovushqatori.




Sozlanishi.

G'ijjak
bas.




Tovushqatori.



Sozlanishi.

G'ijjak
kontrabas.



Tovushqatori.



Sozlanishi.

Sato.




Tovushqatori.



Sozlanishi.

Manzur
sato.



Tovushqatori.



SHARQ MUSIQA CHOLG'ULARI.

S e t o r l a r .

Sozlanishi.

Eron setori.



Tovushqatori.




Sozlanishi.

Badaxshon setori.



Tovushqatori.



3.2. Markaziy Osiyo musiqa ilmi va musiqa sozlari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish samaradorligi yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati

Bizning mazkur tadqiqot ishimizni bajarish davomida sinovdan o'tkazgan va o'zimiz samarali deb hisoblagan uslublardan yana biri haqida to'xtalib o'tamiz. Mazkur ish uslubi boshqalaridan amaliy malakalarga tayangan holda o'quvchilarda ijro etish konikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Dastlabki mashg'ulotlarda o'quvchilar navbat bilan o'qituvchining bevosita ko'magida bajariladigan vazifalarni ketma-ketligi asosida tanlangan asarni o'rganishga kirishadilar. Bunda cholg'uni sozlash, asarni e'lon qilish, nota yozuvidagi partiyalarini ishtirokchilariga tarqatish. 1-2- notani qo'shish, asarni kichik qismlarga bo'lib ishlash, ijroni boshlash, cho'zimlarda ushlab turish, barchasini o'qituvchi nazoratida bajariladi. Bu jarayon davomli tarzda amalga oshirilganda eng samarali uslub bo'lib, asta-sekinlik bilan o'quvchilarni ijrosini boshqarish, nazorat qilish, musiqani eshitish, o'z harakatlarini tushunarli bo'lishi, o'z hatti-harakatini nazorat qilish, yutuq va kamchiliklarini sezish va kelgusi mashg'ulotlarga ularni bartaraf etish ustida mustaqil ishlashlariga katta yordam beradi. Bunday uslubda ishlaganda o'quvchilarda ijodiy tasavvur va taqqoslash malakalari yaxshi rivojlanadi.

Musiqqa o'qituvchisi uchun asar nota yozuvini (matnini) qog'ozdan o'qish (chitka s lista) juda muhimdir. Tanlangan asarlarni qog'ozga qarab o'qishni doimiy ravishda mashq qilib borish kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilar nota matnini solferino uslubida ko'z bilan taxminan kuzatib tanishadilar, bunda tezlik, o'lchahs, asarning ohangdorlik xususiyatlari (kuy tuzilmasi), ritmika mustaqil yoki o'rnini bosuvchi jo'r soz shakllar farq qiluvchi yoki takrorlanuvchi iboralarni aniqlaydilar.

Pedagog o'quvchilar oldiga turli o'quv vazifalarini qo'yadi, alabatta bunda ularning bilimi, ko'nikma va malakalar saviyasi, tayyorgarliklari, musiqa asarining murakkablik va qiyinchilik holatlari hisobga olinadi.

O'quv vazifalarining murakkablashuvi musiqa materialining xususiyatlari bilan bog'liq. Og'ir(sust), o'rtacha(mo'tadil), tez, joshqin sur'atdagi asarlarni oqish, bir ovozli, ikki ovozli, uch ovozli, ko'p ovozli, ikki ovoz partiyasining jo'mavozligini bayon qilishning sodda yoki murakkabligi bilan bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarda mustaqil yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun pedagog-o'qituvchilar mashg'ulotlar jarayonida uning oldiga muammoli, aniqlashtiruvchi topshiriqlar qo'yadi. Bu esa ta'im oluvchilarning ijrochilikka ijodiy yondashishiga, umumlashgan musiqiy-badiiy obrazalarni vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etilishi esa o'quvchilarga texnologiyalardan ma'qul va samaralilarini, tanlab, o'z o'rnida qo'llashlarini va ta'lim sifat samaradoqligi yo'lida o'z bilim, tajriba, mahoratlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib berish vazifasini qo'yadi.

Tajriba sinov ishlari natijalari va ularning statistik tahlili.

Muayyan ilmiy tadqiqot doirasida amalga oshirilayotgan tajriba-sinov ishlarining puxta ishlab chiqilgan dastur asosida olib borilishi, bu boradagi samarali deb hisoblangan ish shakli, usullarining ilmiy jihatdan asoslanishini kafolatlaydi.

O'rta maktab musiqa madaniyati fani bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosini tadqiq etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun maxsus ishchi dastur ishlab chiqdik. Unda dars o'tish bo'yicha mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni fan sirlarini puxta egallash, asarlarni mustaqil organish, soz partiyalarini yod olish rejasini tuzib chiqish, e'tiborga olindi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida tajriba guruhlaridagi o'quvchilarning bilim va malakalaridagi ijobiy o'zgarishlarni aniqlash, qiyosiy o'rganish

maqsadida nazorat guruhlari, tajriba sinov ishlarining bosqichlari aniqlandi, shuningdek ularning obyektlari, statistik tahlilning mezonlari aniqlandi.

O'quvchilarni ijrochilik faoliyatiga tayyorlash samaradorligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayonni quyidagi metodlarga tayangan holda o'rganish lozim topildi:

- Pedagogik kuzatuv;
- Yangi metod va usullarni qo'llash;
- Suhbat, savol-javob;
- Anketa-so'rov;
- Bahs-munozara;
- Pedagogik tajribalarni umumlashtirish, qiyosiy tahlil qilish, xulosalash;
- Matematik statistika.

Tajriba-sinov ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga erishishda obyektiv va subyektiv omillar nazarda tutildi va ular ma'lum darajada bu faoliyatning samaradorlik kasb etishiga olib keldi:

1. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda ko'nikma va malakalarini shakllantirishning dastur talablariga mos kelishi va mustaqil pedagogic faoliyatga tayyorgarlik holati;
2. O'quvchilarning ijro faoliyatda malakalarini to'liq namoyon etishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarligi;
3. Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olishi;
4. O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolliklari, ularning o'z ustida ishlash ko'nikmalariga egaligi;
5. Mashg'ulotlar jarayonida cholg'uda ansambl bilan ishlash malakalarini tizimli, uzluksiz va izchil yo'lga qo'yilishi;

Obyektiv omillar:

1. Pedagogik ta'lim tizimida ta'lim jarayonida o'quvchilarni musiqiy faoliyatiga tayyorlash uchun zamon talablari darajasida shart-sharoitlarning mavjudligi (o'quv manbalar, texnik, ko'rgazmali vositalardan foydalanish holati);
2. Mashg'ulotlarning o'tkazilish shakli, pedagogic-texnologik asoslarini ishlab chiqilganligi;
3. O'quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligi va ularni o'zaro tenglik darajasi (o'quvchilarni musiqiy tayyorgarliklari o'rtasidagi tafovut).
4. Predmetlararo aloqadorlik va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari;

Tadqiqot muammosi doirasida tajriba-sinov ishlari asosan uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi. Bunda tajriba-sinov ishlari olib boriladigan Xalq ta'lim muassasasi, guruhlar, tajriba sinov muddati, mashg'ulotlar rejalari aniqlandi.
2. Asosiy-shakllantiruvchi bosqich. Bu jarayonda o'quvchilar bilan ishlab chiqilgan dastur asosida mashg'ulotlar olib borish, samarali deb hisoblangan ish shakl-usullarini sinovdan o'tkazish ko'zda tutildi.
3. Tajriba-sinov ishlarini yakuniy bosqichi, natijalarni umumlashtirish, tahlil qilish va matematik-statistik uslubida aniqlash bosqichi.

Tajriba-sinov ishlari umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida olib boriladi. Ta'lim yo'nalishlarida darslar "guruhchalar" tarzida olib boriladi, ya'ni 5ta talaba bir "guruhcha"ni tashkil etadi va bir sinfda 20 ta o'quvchi ishtirokida tashkil etiladi. Shu munosabat bilan 4 - guruhni tajriba

guruhi sifatida, 4 ta guruhni nazorat guruhi sifatida tanlanadi. Bunda tajriba guruhida 20 ta nazorat guruhidagi o'quvchi tajriba-sinov ishlariga jalb etiladi.

Tadqiqot samaradorligini aniqlash imkonini beruvchi uslub sifatida tajriba boshida nazariy va amaliy tayyorgarliklar aniqlab olinadi.

- 80-100 ballgacha ko'rsatgichlar "yuqori" daraja bilan;

- 60-80 ball natijalar "o'rta" daraja bilan;

- 40-60 ballgacha natija ko'rsatgichlar "past" daraja bilan va 40 dan past ko'rsatgichlar "qoniqarsiz" daraja bilan baholanadi. Tajriba-sinov ishining boshida o'quvchilarning dirijorlik bo'yicha malakaviy tayyorgarlik darajalari quyidagicha ko'rinishda bo'ldi, Jadval – 1.

Jadval - 1.

Tajriba boshida

№	Gurular	O'quvchilar soni	Daraja ko'rsatgichlari							
			Yuqori		Yaxshi		O'rta		Qoniqarsiz	
			Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
1.	Tajriba n ₁ =5 6 - sinf	10	2	20%	3	30%	3	30%	2	20%
2.	Nazorat n ₃ =10 6 - sinf	10	2	20%	2	20%	4	40%	2	20%
3.	Tajriba n ₁ =5 6 - sinf	10	3	30%	3	30%	2	20%	2	20%
4.	Nazorat n ₄ =10 6 - sinf	10	2	20%	3	30%	4	40%	1	10%

5.	Jami:	40	9	22.5	11	27.5	13	32.5	7	17.5
----	-------	----	---	------	----	------	----	------	---	------

2. O'quvchilarning musiqa madaniyati fani bo'yicha aniqlangan bilim, ko'nikma va malakalari, ular bilimiga qo'yilgan talablarga ko'ra ancha past ekanligi, bu esa bugungi kunda darslarni guruh holida o'tilayotganligining ham ancha jiddiy salbiy tasir ko'rsatayotganligini bildirar edi.

Shundan so'ng tajriba-sinov ishlarining asosiy bosqichi, ya'ni shakllantiruvchi bosqichi bo'yicha dasturda ko'zda tutilgan tarzda amaliy-tajribaviy ishlarga kirishiladi. Bu jarayonda tadqiqotning oldingi bobida bayon etilgan ish shakl va usullari, vositalarini qo'llagan holda o'quvchilar bilan tajriba guruhlarida mashg'ulotlar olib boriladi. Mashg'ulotlarda interfaol usullardan samarali foydalaniladi, mashg'ulotlar so'ngida yutuq va kamchiliklarni muhokama qilish, kamchilik va xatoliklarni bartaraf etish ustida ishlash, mustaqil topshiriqlar berish ishlari muntazamlilik kasb etiladi.

O'quvchilar bilan o'tkazilgan ana shunday mashg'ulotlardan keyin ularda dirijorlik kasbiy layoqatiga oid tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ikki yo'nalishini ko'zda tutgan va ularga amal qilgan holda olib boriladi.

1.O'quvchilarning musiqiy-nazariy tayyorgarligi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarni tanlangan asarlarni nazariy tahlil qilishlari, nota o'qish malakalari, musiqiy asar janri, xarakteri, lad-tonalligi, tempi, o'lchovi, dinamik belgilarni bilib, tushunib, aniq nazariy qoidalarini anglab olishlariga qaratiladi.

2.Musiqa sozlarida bevosita yakka tartibda va jamoa shaklida ijro etishga o'rgatish. Bundan tashqari navbat bilan tajriba guruhidagi o'quvchilarni mashg'ulotlariga jalb qilib ularni ijro malakalarini takomillashtirib va mustahkamlab borishi yo'lga qo'yiladi.

3.Pedagogik tajriba uchun maxsus tayyorlangan metodikani amaliyotda sinash uchun o'tkazilgan amaliy ishlar natijasida o'quvchilar tomonidan kuylar (jamoaviy ijro uchun mo'ljallangan turli janr, xarakter, o'lchov,

murakkablikdagi) ko'nikma va malakalarida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligi aniqlanadi. Tajriba ishlarining so'nggi bosqichida xuddi yuqoridagidek o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash bo'yicha sinov o'tkaziladi. Uning natijalari quyidagi jadvalda o'z ifodasini topdi.

Tajriba oxirida Talabalarni dirijorlik fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanganlik darajasini dinamikasini ko'rsatuvchi ifodalar.

2 –

jadval

№	Gurular	Talabalar soni	Daraja ko'rsatgichlari							
			Yuqori		Yaxshi		O'rta		Qoniqarsiz	
			Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
1.	Tajriba n ₁ =5 6 – sinf	10	4	40%	4	40%	2	20%	-	-
2.	Nazorat n ₃ =10 6 – sinf	10	3	30%	3	30%	3	30%	1	2.5%
3.	Tajriba n ₁ =5 6 – sinf	10	5	50%	4	40%	1	10%	-	-
4.	Nazorat n ₄ =10 6 – sinf	10	3	30%	4	40%	2	20%	1	2.5%
5.	Jami:	40	15	37.5	15	37.5	8	20	2	5

Tajriba boshida va oxiridagi tajriba va nazorat guruhlaridagi umumiy ko'rsatgichlar jadval ko'rinishida quyidagicha bo'ldi. 3 – jadval.

Ko'rsatgich	Yuqori		Yaxshi		O'rta		Qoniqarsiz	
Ballar	80-100		61-80		41-60		40 dan past	
Tajriba 1-2	Taj b	Taj ox	Taj b	Taj ox	Taj b	Taj ox	Taj b	Taj ox
	5	9	6	8	5	3	4	-
Nazorat 1-2	Taj b	Taj ox	Taj b	Taj ox	Taj b	Taj ox	Taj b	Taj ox
	4	6	5	7	8	5	3	2


Jadvaldan ko'rinadiki tajriba va nazorat guruhlariga jalb etilgan alabalarni tajriba boshi va oxiridagi ko'rsatgichlarida nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi ko'rsatgichlari ancha yuqoriga tomon o'zgarish, o'sish bo'lganligi korinadi. Tajriba boshida yuqori ko'rsatgich 5 tani tashkil etgan bo'lsa tajriba oxirida 9 taga yetgan, "yaxshi" ko'rsatkichda ham "6"dan "8" taga o'sish bo'lgan, "o'rta" ko'rsatkich "5" tadan "3" taga tushgan va qoniqarsiz ko'rsatkich kuzatilmagan. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar unchalik sezilarli bo'lmagan.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida 40 ta o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi ro'y bergan o'zgarishlar tahlil etilib, matematik-statistika metodi orqali tasodifiy tanlangan ikkita guruh (20 talaba) o'quvchilarining dirijorlik malakalarini shakllanganlik darajasi aniqlandi. Buni biz quyidagi statistik metod orqali aniqladik. Ya'ni yuqoridagi 3 – jadvalga asoslangan holda 4-jadvalni to'ldiramiz. (Bunda ko'rsatkichlarni "yuqori-5", "yaxshi-4", "o'rta-3", "qoniqarsiz-2" deb olamiz).

4 – jadval.

Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
X_1	2	3	4	5		2	3	4	5
$W_1 n_1$ $z=20$	-	3	8	9	$N_{3,4}=20$	2	5	7	6

Yuqoridagi jadvalga mos keluvchi poligonlarni chizamiz:



Poligonda qayd etilgan chiziqlardan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanma model qiymatlari mos ravishda $M_T=9$ va $M_H=6$, ya'ni, ular orasidagi farq yetarli darajada bo'lib, $M_T > M_H$ ekan. Bu esa, o'z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar ham "x-y" shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko'rsatadi.

Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$x = \frac{1}{n_1} \sum_{i=1}^{11} n_i x_i = \frac{2 + 3 * 3 + 8 * 4 + 9 * 5}{20} = \frac{88}{20} \approx 4.40$$

$$x = \frac{1}{n_1} \sum_{i=1}^{11} n_i x_i = \frac{2 * 2 + 5 * 3 + 7 * 4 + 6 * 5}{20} = \frac{77}{20} \approx 3.85$$

Demak, tajriba guruhida kasbiy tayyorgarlik darajasi nazorat guruhidagidan katta ekan: $X > Y$. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish yuqori

ekan. Bu olib borgan tadqiqot ishi, ishlab chiqqan metodikamizning samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

3-bob bo'yicha xulosalar

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunning 41-moddasida ta’lim tashkilotlarining reytingi, ta’lim tashkilotlari o’rtasida sog’lom raqobat muhitini shakllantirish, ilmiy-pedagogik faoliyat darajasining o’sishini va sifatining oshishini rag’batlantirish, pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish, o’qitish sifatining yuqori ko’rsatkichlariga erishish ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida, shu jumladan oliy pedagogik ta’limda har bir fan o’qitilishida uning eng muhim imkoniyatlaridan to’liq foydalanish, ta’limni uzviylik va uzluksizlik asosida yo’lga qo’yish juda muhimdir.

Pedagogika tarixi va nazariyasida o’z ifodasini topgan ma’naviy tushunchalar, tamoyillar va ulardan foydalanishda qulay pedagogik va psixologik muhit yaratiladigan metod va vositalar ta’lim sifat va samaradorligini oshiruvchi omillar bo’lib xizmat qiladi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida shu narsalar ma’lum bo’ldiki, musiqiy ta’lim yo’nalishida mutaxassislik fanlarini o’qitishda o’ziga xos pedagogik yondashuvlar nihoyatda muhim sanaladi:

- Fanni o’qitishning shakli, o’ziga xosligi, bo’lg’usi o’qituvchining kasbiy faoliyatida tutadigan o’rni va ahamiyati;
- Fanni o’qitishning metodologik asoslari va metodik tizimining yaratilganligi;
- O’quv-uslubiy ta’minotning kerakli darajada mavjudligi;
- Pedagogik shart-sharoitlarning yaratilganligi;
- Ta’limga texnologik yondashuvning ma’lum meyorlar asosida tizimlashtirilganligi;

- Talim oluvchilarning musiqiy bilim, tushuncha, qiziqish, qobiliyat va iqtidorlari bo'yicha ma'lum zaxiralarga egaligi;

Demak, milliy musiqiy ta'lim asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash ta'limning asosiy shakllantiruvchi bosqichlaridagi o'qitish ishlarining mazmun va mohiyatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqot so'ngida quyidagi xulosalarga kelindi:

Pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi "musiqiy ta'lim" ixtisosligida "dirijorlik" fani, "vokal ijrochiligi", "Asosiy cholg'u asbobi" kabi fanlar o'zining tuzilishi, tashkiliy xususiyatlari va musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi tutadigan o'ri bilan ajralib turadi.

Musiqa darslarini olib borishda o'qituvchi musiqa san'atining bir necha fanlaridan olingan bilimlarni bir dars davomida qo'llashiga to'g'ri keladi. darsning asosiy faoliyati hisoblanmish jamoa bo'lib qo'shiq kuylash esa dirijor boshqaruvi bilangina amalga oshiriladi. Bu esa bo'lajak musiqa o'qituvchilarini dirijorlik bo'yicha ham kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini o'ziga xos metodik tizim asosida yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Shu bois tadqiqotimizni bajarish natijasida quyidagi sihlar amalga oshirildi:

1. Tadqiqot mazmunida "musiqiy ta'lim" ixtisosligi bo'yicha umumtalim maktablari musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda "musiqa madaniyati " fani sinfida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilindi, bugungi kunda uni zamon talablari asosida tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari o'rganildi.

2. Musiqa mashg'ulotlarini tashkiliy-uslubiy asoslarini to'g'ri yo'lga qo'yish, ta'lim-tarbiya ishlarini pedagogikaning umudidaktik prinsiplariga tayangan holda, fanni o'qitishning o'ziga xos spetsifik xususiyatlariga ko'ra tashkil etish;

3. O'qitish jarayonini har bir bosqish kesimida oddiydan murakkabga tamoyili va o'quvchilarni individual qobiliyat va musiqiy tayyorgarliklarini hisobga olgan holda olib borish;

4. Ilmiy tadqiqot ishimizda o'rta maktab musiqa madaniyati sinfida olib boriladigan mashg'ulorlarda o'quvchilarni musiqiy-nazariy savodxonligini muttasil oshirib borish, fanlararo bog'liqlikdan unumli va o'rinli foydalanish dars samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslanadi;

5. Oliy pedagogik ta'lim tizimidagi "Musiqiy ta'lim" ixtisosligida o'quv rejasidagi ilgari «guruhli» va «yakka tartib holida» o'qib kelingan "Asosiy va qo'shimcha cholg'u asbobi" fanlarini guruh holida o'qilayotganligi munosabati bilan ushbu fanlarni o'qitishning shunga mos o'quv dasturi, Davlat Ta'lim Standarti va darsliklar mazmunini yangi vaziyatga moslashgan variantlarini yaratish kerakligi ilmiy dalillar asosida ko'rsatib berildi.

6. Ilmiy tadqiqot ishida 6 – 7 sinflarida o'quvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish, shu jarayonda o'quvchilarda kasbiy malaka, bilim va amaliy ko'nikma va tajribalar hosil qilishlariga erishishlari va bu o'rinda o'qituvchi-pedagog oldiga qo'yiladigan talablar mohiyati ochib berildi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagicha tavsifa qilamiz:

7. O'rta maktab musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga mavjud "musiqiy ta'lim" jarayoni bo'yicha "musiqa madaniyati" fanini o'qitilishini yangicha shaklda o'Ichaganligi munosabati bilan uni shu shaklga mos, uning samarali kechishiga xizmat qiladigan metodik tizimi, tashkiliy-uslubiy mexanizmini yaratish;

8. «Musiqqa madaniyati» fanining 6-7 sinflarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarini maktab musiqa madaniyati darslarini olib borilishi xususiyatlarini hisobga olgan holda yo'lga qo'yish;

9. Musiqa madaniyati kursi bo'yicha musiqa o'qituvchilarini tayyorlash va ularning hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotganlarining malakasini oshirish va

bu jarayonni samarali kechishi boyicha nazariy hamda amaliy tavsiyalar berish maqsadida “maxsus kurs” va “tanlov fanlarini yo’lga qo’yish”;

10. O’rta maktab musiqa madaniyati darslarida pedagogik mahorat orqali o’quvchilarni musiqa ilmiga tayyorlash, ya’ni cholg’u ijrochiligi, asosiy va qo’shimcha cholg’u asboblari kurslari bo’yicha) fanini o’qitilishi borasidagi erishilayotgan yutuqlar, mavjud holat, shuningdek toplangan pedagogik tajribalarni ommalashtirilishini ta’minlash;

11. Uzlüksiz ta’lim tizimida “musiqiy ta’lim” ning o’ziga xos o’qitish xususiyatlarini hisobga olgan holda “musiqiy ta’lim” fanini o’qitishni samaradorligini ta’minlashga qaratilgan amaliy tajribalar yuqorida sanab o’tilganlar bilan mohiyatan bog’lanadi va izohlanadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

XULOSA

Markaziy Osiyo pedagog olimlarining milliy musiqa cholg'ulari, xalq ustolari, cholg'u ijrochiligi haqida qisqacha fikrlar yuritildi. Cholg'ushunoslik deganda biz milliy musiqa cholg'ulariga tegishli amaliy va nazariy musiqiy bilimlar majmuasini tushunamiz.

Bu tushunchalar musiqa dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan ko'pgina olimlar tomonidan kichik-kichik ilmiy maqolalar, maxsus ilmiy risolalar, kitoblar va boshqa izlanishlar vositasida yoritib berilishga harakat qilmoqdalar. Ma'lumki ilm fanning barcha sohalaridagi ko'pgina atamalar arab va fors tillarida. Jumladan musiqa dunyosidagi ko'pgina atamalar. Shu bois ilmu-fan sohasida manbashunos, o'lkashunos, navoiyshunos, folklorshunos, tilshunos shu bilan birga musiqa ijrochiligida musiqashunos, cholg'ushunoslik atamalari ham qo'llanilmoqda.

Cholg'ushunoslik atamasi ya'ni musiqa cholg'ushunosligi ma'nosini anglatadi. Yuqoridagi atamalarga «shunos» yoki «shinos» so'zlari fors tilida shu sohalariga tegishli ma'lumotlarni yuqori darajada o'zlashtirgan yoki shu sohaga tegishli ma'lumotlar bilan mukammal ravishda tanishib chiqish ma'nolarini anglatadi. Shu bois har bir soha mutaxassislari, shu sohaga tegishli ma'lumotlar bilan chuqur tanishish maqsadida uzoq yillar davomida amaliy va nazariy izlanishlar olib boradilar.

O'zbekistonda cholg'ushunoslik masalalarida dastlab Avgust Eyxgorn, 1920 yillarda V.A.Belyayev, Abdurauf Fitrat, 1937 yillarda Xalq ustasi Usto Usmon Zufarov tomonidan musiqa cholg'ularini yangi namunalari tayyorlangan. 1960 yillarda A.I.Petrosyans, T.S.Vizgo keyingi yillarda San'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulloh Karomatli (O'zbekiston), Nizom Nurjonov (Tojikiston) bilan hamkorlikda cholg'ushunoslik xususida ko'pgina ma'lumotlar to'planib, nashr ettirilgan.

Cholg'ushunoslik masalasida fikr yuritilganda O'zbekiston hududida mavjud har bir musiqa cholg'usini yaratilish tarixi, tayyorlash jarayonlari, undagi mavjud bo'linmalarning atamalari, jarangdor yoqimli, xushsado musiqa cholg'ularni tayyorlash qoidalari, musiqaning cholg'u ijrochiligi sohasida faoliyat ko'rsatgan buyuk mutrib sozandalarni ijodi va ijrochilik maktablari, ularning ijro jarayonida qo'llagan milliy musiqiy ijro bezaklari, o'zbek milliy musiqa cholg'ularini O'zbekiston, Markaziy Osiyo, Umumjahon musiqa ijrochiligidagi o'rni va boshqa milliy musiqa cholg'ulari umuman cholg'u ijrochiligiga oid ma'lumotlari muntazam ravishda ilmiy asosda yoritib berilishi bu ma'lumotlardan nafaqat musiqa dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi mutaxassislar balki barcha O'zbekistonda yashab ijod etayotgan fuqarolar xabardor bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Albatta O'zbekistonda hozirgi kunda musiqa ilmini rivojiga jumladan «Cholg'ushunoslik» masalalariga ham e'tibor berilib, barcha Markaziy Osiyo jumladan, Oliy va o'rta musiqiy ta'lim dargohlarida musiqa cholg'ulari hamda cholg'ushunoslik masalalari o'rganilmoqda.

Umuman cholg'ushunoslik masalalari hali juda ko'p ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilishini taqozo etadi. Bu tadqiqot cholg'ushunoslik borasida bajarilgan kichik bir ilmiy izlanish sifatida musiqa dunyosida faoliyat ko'rsatayotgan hamkasblarimiz e'tiboriga havola etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyev. PF-6000 26.05.2020
2. Sh.M.Mirziyoyev. PF-4947 7.02.2017
3. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.: O'zbekiston. 1996.
4. I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston. 1999.
5. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
6. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillik ostonasida. T.: O'zbekiston. 2011.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni T.: 23.09.2020 O'RQ-637-son
8. O'zbekiston Davlat Standarti. Oliy Ta'lim. Bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. T.: Ova O'MTV, 2008.
9. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. T.; “Ta'lim taraqqiyoti”, 6-7 sonlar, 1999.
10. Dirijorlik. Fan dasturi. T.; OvaO'MTV, 2008.
11. Dirijorlik. O'quv-uslubiy majmua. SamDU, 2011.
12. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. T.; O'qituvchi. 1987.
13. N.Sharafiyeva. Xorshunoslik. T.; O'qituvchi. 1988.
14. Kushayev A. Estetik tarbiya asoslari. T.; O'qituvchi.1987.
15. G.Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU. 2000.

16. D.Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.; 2005.
17. Asafyev.B.V. O xorovom iskusstve. M.; Muzika. 1980.
18. Aidriyeva. A.M. Metodika prepodovaniya xorovogo dirijorovaniya. M.; Proyevedeniya. 1989.
19. Anisimov.A.Sh. Dirijor – xormeystr. M.; Muzika. 1996.
20. Olxov.K.A. Voprosi teorii dirijorskoy texniki i obucheniya xorovix dirijorov. M.; Proyevedeniya.1988.
21. Sokolov.V.G. Rabota s xorom,-M.; Proyevedeniya, 1993.
22. E.Eshmatov. Dirijorlik. T.; Ijod dunyosi. 2008.
23. Azimov.K. O'zbekiston dirijorlari. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2001.
24. Ginzburg.L. Dirijorskoye isskustvo. M.; Muzika. 1985.
25. Qudratov.I. Talabalar va bolalar ashula – xor jamoalarini tashkil qilishva ishlash metodikasi. T.; Fan va texnologiyalar nashriyoti.2006.
26. D.Radjabova. Fortepiano mashg'ulotlari. T.; Oqituvchi. 1997.
27. Havaskorlik o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlarini tuzish va ishlash metodikasi. T.; RXIM. 1993.
28. P.Xalabuzar i dr. Metodiki muzikalnogo vospitaniya. M.; Proyevedeniya 1990.
29. N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. 1-kitob.T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 1975.

30. N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. 2-kitob. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 1976.
31. N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. 3-kitob. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 1977.
32. H.Nurmatov, N.Normo'minov. Musiqa alifbosi. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011.
33. H.Nurmatov, N.Normo'minov. Musiqa. 2-sinf. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.
34. H.Nurmatov, N.Normo'minov. Musiqa. 3-sinf. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008.
35. O.Ibrohimov. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008.
36. A.Mansurov, D.Karimova. Musiqa. 5-sinf uchun darslik. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.
37. Q.Mansurov, S.Begmatov. Musiqa 6-sinf uchun darslik. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009.
38. O.Ibrohimov, Sh.Sadirov. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY